O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI

TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

TOSHKENT SHAHRINING STATISTIK AXBOROTNOMASI

2023-YIL
YANVAR-IYUN

- 2023 -

SO‘Z BOSHI

Toshkent shahrining statistik axborotnomasi – Toshkent shahrining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlar holatini kompleks tavsiflovchi Toshkent shahar statistika boshqarmasining choraklik nashri hisoblanadi. Statistik axborotnomada 2023-yil yanvar-iyun oylari yakunlari bo‘yicha Toshkent shahrining asosiy statistik ko‘rsatkichlari chop etilgan.

Ushbu nashrda statistik ko‘rsatkichlar Yevropa hamjamiyatining Iqtisodiy faoliyat turlari statistik tasniflagichiga (NACE Rev.2) asoslangan O‘zbekiston Respublikasi Toshkent shahrining iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi (2 tahrir) bo‘yicha shakllantirilgan va taqdim etilgan.

Shu bilan birga, mavjud faoliyat turlaridan foydalanishda IFUT-2 talablari qo‘llanilgan. Xususan, foydalanilayotgan yoki qayta ishlanayotgan mahsulotlarni ularning yangi turlariga qayta shakllantirishga yo‘naltirilgan barcha faoliyat turlari ishlab chiqarish jarayonlariga kiritilgan: tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, qayta ishlab chiqarish sanoati, elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash, suv ta’minoti, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish, qurilish (tasniflagichning B,C,D,E,F seksiyalari).

Shuningdek, xalqaro statistika amaliyotiga muvofiq, iqtisodiy trendlarni yanada aniqroq tahlil qilish maqsadida, Yalpi hududiy mahsulot tuzilmasidagi faoliyat turlarining ulush ko‘rsatkichlari yalpi qo‘shilgan qiymatga nisbatan keltirilgan (ya’ni, YAHM hajmidan mahsulotlarga soliqlar va subsidiyalar ta’siri chiqarib tashlangan).

Nashr 12 ta tematik qismlardan tashkil topgan bo‘lib, u asosiy makroiqtisodiy indikatorlarni, shuningdek yalpi hududiy mahsulotni ishlab chiqarish, korxonalar va tashkilotlar, jumladan kichik tadbirkorlik sub’ektlarining iqtisodiy faoliyati, tashqi iqtisodiy aloqa, sanoat, investitsiya va qurilish, transport, tovar va xizmatlar bozori, demografiya va mehnat bozorlarining rivojlanish dinamikasi to‘g‘risidagi statistika ma’lumotlarini o‘z ichiga oladi

Qisqartma va shartli belgilar					
YAHM	–	yalpi hududiy mahsulot	**l.**	–	litr
%.	–	Foiz	**0,0**	–	katta bo‘lmagan miqdor
mlrd.	–	milliard	**m.**	–	Marta
mln.	–	million	**–**	–	ko‘rsatkichning yo‘qligi
mln.AQSH doll.	–	million AQSH dollari	**ga.**	–	Gektar
kv.	–	kvadrat	**t**	–	Tonna
km.	–	kilometr	**yo‘lovchi/km**	–	yo‘lovchi-kilometr
m	–	metr	**1), 2), 3)……**	–	izohning mavjudligi

MUNDARIJA

Nomi	bet.
ASOSIY IQTISODIY KO‘RSATKICHLAR	6
I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT ISHLAB CHIQARISH	7
II. SANOAT	12
III. INVESTITSIYALAR VA QURILISH	31
IV. XIZMATLAR	48
V. TRANSPORT	66
VI. ISTE’MOL BOZORI	69
VII. TASHQI IQTISODIY ALOQALAR	80
VIII. KICHIK TADBIRKORLIK (BIZNES)	93
IX. KORXONA VA TASHKILOTLARNING MOLIYAVIY NATIJALARI	101
X. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI	110
XI. O‘RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI	122
XII. DEMOGRAFIK HOLAT	126

Asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlar
2023 -yil yanvar-iyun oylari

	mlrd. so‘m	2022 -yil yanvar-iyunga nisbatan foiz hisobida
Yalpi hududiy mahsulot	**83 267,0**	**107,9**
Sanoat mahsuloti	**53 652,1**	**104,5**
Iste’mol tovarlari	**15 962,2**	**100,8**
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar	**28 454,0**	**111,0**
Qurilish ishlari	**16 266,9**	**100,1**
Yuk aylanmasi *(mln. tn-km)*	**1 207,6**	**97,7**
Yo‘lovchi aylanmasi *(mln. yo‘lovchi-km)*	**5 598,9**	**102,5**
Chakana tovar aylanmasi	**35 337,5**	**111,7**
Xizmatlar, jami	**85 751,8**	**117,5**
Tashqi savdo aylanmasi *(mln. AQSH doll.)*	**11 157,0**	**121,1**
Eksport	**2 371,5**	**112,5**
Import	**8 785,5**	**123,6**
Saldo (+;-)	**-6 414,0**	**x**

** Mahsulotning fizik hajmi 2023-yil yanvar-iyun (2022- yil yanvar-iyunga nisbatan)*

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilning yanvar-iyunda Toshkent shahri bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda –YAHM) hajmi joriy narxlar 83267,0 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2022- yilning yanvar-iyun bilan taqqoslaganda 7,9 % ga o'sdi.

Yanvar-iyun oylari uchun iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish

	mlrd. so'm		2022-yil yanvar-iyunga nisbatan foiz hisobida
	2022-yil	2023-yil	
I. Yalpi hududiy mahsulot, jami	**69 405,0**	**83 267,0**	**107,9**
shu jumladan:			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	62 144,2	75 337,8	107,7
Mahsulotlarga sof soliqlar	7 260,8	7 929,2	109,6
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	**62 144,2**	**75 337,8**	**107,7**
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	**26 200,8**	**29 351,4**	**103,5**
Sanoat	20 066,8	22 412,8	104,5
Qurilish	6 134,0	6 938,6	100,1
Xizmatlar	**35 943,4**	**45 986,4**	**110,8**
Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	9 838,8	12 864,6	112,7
Tashish va saqlash, axborot va aloqa	8 331,8	11 028,5	119,6
Boshqa xizmat tarmoqlari	17 772,8	22 093,3	105,5

YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha o‘sish sur’atlari, *foizda*
(2023- yil yanvar-iyun oylarida)



Toshkent shahri iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o‘sish sur’atlari YAHM o‘sishida asosiy omil bo‘lib xizmat qildi. Jumladan, sanoat ishlab chiqarish indeksi – 104,5 % ni tashkil etib (YAHM tarkibidagi ulushi 29,7 %), qurilish – 100,1 % (9,2 %), savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar – 112,7 % (17,1 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 119,6 % (14,6 %) va xizmat ko‘rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 105,5 % (29,4 %) ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining yalpi qo‘shilgan qiymati tarkibi

(jamiga nisbatan foizda)



2023-yil yanvar-iyun oylari davomida Toshkent shahri bo‘yicha savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarning yalpi hududiy mahsulot tarkibidagi ulushi 17,1 % ni (2022- yil yanvar-iyunda 15,8 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa sohasida yalpi hududiy mahsulot tarkibidagi ulushi 14,6 % ni (13,4 %), xizmat ko‘rsatuvchi boshqa tarmoqlar sohasida yalpi hududiy mahsulot tarkibidagi 29,4 % ni (28,64 %) tashkil etdi.

Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo‘yicha tarkibi,
(jamiga nisbatan foizda)



Toshkent shahri iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy yalpi hududiy mahsulotning 90,5 % ni, mahsulotlarga sof soliqlar esa 9,5 % ni tashkil etdi.

Sanoat (qurilishni qo‘shgan holda) tarmog‘i yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi hisobot yilida 38,9 % ni tashkil etdi. Xizmatlar sohasining yalpi hududiy mahsulotning tarkibidagi ulushi esa 61,1 % ni tashkil etdi.

2023-yil yanvar-iyun oylari davomida dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra yalpi hududiy mahsulot aholi jon boshiga 27 960,7 ming so‘mni tashkil etib o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 4,5 % ga o‘sgan. Shu bilan birga, Toshkent shahrida yirik korxonalar iqtisodiy faoliyati jadallashishi oqibatida YAHMda kichik biznesning ulushi 48,5 % ni tashkil qildi.

Yalpi hududiy mahsulotda kichik biznes ulushi

(yanvar-iyun oylari, jamiga nisbatan ulushi)



O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha YAIMni shakllantirishda Toshkent shahrining qo‘shgan hissasi 17,7 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 0,2 punktga o‘sgan.

Yalpi ichki mahsulotda Toshkent shahrining ulushi, *foizda*



STATISTIK KO‘RSATKICHLARGA IZOHLAR

Yalpi hududiy mahsulot- milliy hisoblar tizimining asosiy ko’rsatkichlari bo‘lib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududida joylashgan rezident-institsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi.

Aholi jon boshiga Yalpi hududiy mahsulot – muayyan davrda joriy narxlardagi Yalpi hududiy mahsulot hajminimamlakat (hudud)ning o‘rtacha aholisi soniga bo‘lish orqali aniqlanadi.

Yalpi qo‘shilgan qiymat - ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymati (ishlab chiqarish) hamda ishlab chiqarish jarayonida to‘laligacha iste’mol qilingan tovarlar va xizmatlar qiymati (oraliq iste’mol) o‘rtasidagi farq orqali aniqlanadi.

Mahsulotlar uchun soliqlar- tovar yoki xizmatlarning bir birligiga, yani rezidentlar tomonidan ishlab chiqariladigan, sotiladigan yoki import qilinadigan tovarlar va xizmatlarning miqdori yoki qiymatiga mutanosib tarzda solinadigan soliqlar. Ularga qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksizlar, eksport va import uchun soliqlar hamda boshqalar kiradi.

Mahsulotlar uchun sof soliqlar- mahsulotlar uchun soliqlar mahsulotlar uchun subsidiyalarni ayirish orqali aniqlanadi.

Mahsulotlar uchun subsidiyalar- davlat budjetidan tovarlar yoki xizmatlarning bir birligiga, ya’ni rezidentlar tomonidan ishlab chiqariladigan, sotiladigan yoki import qilinadigan tovarlar va xizmatlarning miqdori yoki qiymatiga mutanosib tarzda to‘lanadigan mablag‘lar (subsidiyalar).

Yalpi hududiy mahsulot fizik hajm indeksi (o‘sish sur’ati) doimiy narxlarda, ya’ni o‘tgan yilning mos davri narxlarida hisoblangan hisobot davri Yalpi hududiy mahsulotni (real Yalpi hududiy mahsulot), joriy narxdagi o‘tgan yilning mos davri Yalpi hududiy mahsulotga nisbati orqali aniqlanadi.

Yalpi hududiy mahsulot deflyator indeksi - iqtisodiyotda narxlarning o‘rtacha o‘zgarishini ifodalaydi va nominal yalpi hududiy mahsulotning (joriy narxlardagi hisobot) davri Yalpi hududiy mahsulot) real Yalpi hududiy mahsulotga nisbati orqali hisoblanadi.

Dastlabki ma’lumotlarga asosan joriy yilning yanvar-iyun oylarida Toshkent shahrida faoliyat ko‘rsatayotgan sanoat korxonalari tomonidan 52 562,1 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishiga erishildi va o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 104,5 % ni tashkil etdi.

Hisobot yilida 15 962,2 mlrd.so‘mlik iste’mol tovarlari ishlab chiqarilib, 2022- yil yanvar-iyunga nisbatan o‘sish 100,8 % ni tashkil etdi. Jumladan, 9 539,2 mlrd. so‘mlik oziq-ovqat mahsulotlari, 6 423,0 mlrd. so‘mlik nooziq-ovqat mollari (2022- yil yanvar-iyunga nisbatan mos ravishda 102,4 % va 100,5 %) ishlab chiqarildi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o‘sishining asosiy omili bo‘lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida ishlab chiqarish hajmining 7,8 % ga, suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning 5,3 % ga va elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalashning 26,8 % ga o‘sishini hamda tog‘-kon va ochiq konlarni ishlash sanoati 4,3 % ga, pasayishida ko‘rishimiz mumkin.

Yanvar-iyun oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi (mlrd. so‘mda)



Ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoati

Toshkent shahrida sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar hududda ishlab chiqarish hajmi va sifatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

2023- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 43 699,3 mlrd. so‘mni va o‘tgan yilning shu davriga nisbatan sanoat mahsuloti ishlab chiqarish indeksi 107,8 % ni tashkil etdi.

O‘z navbatida, ishlab chiqaradigan sanoatda o‘tgan yilning mos davriga nisbatan kimyoviy mahsulotlarni ishlab chiqarish 27,2 % ga, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish 22,4 % ga, metallurgiya sanoati 19,2 % ga, elektr uskunalar ishlab chiqarish 18,9 % ga, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish 15,3 % ga oshganligida kuzatishimiz mumkin.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali ishlab chiqarish tarmog‘ining ulushi 4,3 % ni, o‘rta-yuqori texnologiyali 24,7 % ni, o‘rta-quyi texnologiyali 31,4 % ni, quyi texnologiyali 39,6 % ni tashkil etdi.

Yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo‘yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, *foizda*



Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Iqtisodiy tarmoqlar kesimida o‘rganilganda, joriy yilning yanvar-iyun oylarida tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 7 660,9 mlrd.so‘mlik mahsulot ishlab chiqarildi va jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining ishlab chiqarish indeksi 95,7 % ni tashkil qildi.

Tog‘-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi bo‘yicha tabiiy gaz va xom neft qazib olish hajmi o‘tgan yilning tegishli davriga 4,1 %, boshqa tog‘-kon sanoati faoliyati esa 4,4 % ga ga kamayganini kuzatish mumkin.

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash.

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar 1 855,6 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining ishlab chiqarish indeksi 105,3 % ni) tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-iyun oylarida elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari mahsulotlari o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan 5,3 % ga oshgan.

Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.

Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar 436,4 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining ishlab chiqarish indeksi 126,8 % ni) tashkil etganligi kuzatildi. Bunda, 2023-yil yanvar-iyun oylarida suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 26,8 % ga kamaygan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat mahsulotini ishlab chiqarish hajmi

(2023- yil yanvar-iyun oylarida)

	mlrd. so‘m	o‘sish sur’ati, foiz hisobida
Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari bo‘yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi	**53 652,1**	**104,5**
Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	7 660,9	95,7
Xom neft va tabiiy gaz	7 471,9	95,9
Boshqa foydali qazilmalarni qazib olish mahsulotlari	148,2	95,6
Tog‘-kon sanoatida texnika xizmatlari	40,7	76,9
Ishlab chiqaradigan sanoat	43 699,3	107,8
Oziq-ovqat mahsulotlari	5 600,8	103,9
Ichimliklar	4 863,9	98,8
Tamaki mahsulotlari	131,7	84,8
To‘qimachilik mahsulotlari	2 442,0	99,4
Kiyimlar	777,1	104,8
Charm va charmdan mahsulotlar	60,4	82,8
Yog‘och hamda yog‘och va po‘kakdan yasalgan buyumlar (mebeldan tashqari); poxolcha va to‘qish uchun materiallardan yasalgan buyumlar	287,2	67,8
Qog‘oz va qog‘oz mahsulotlari	1 134,7	100,4
Nashr qilish xizmatlari va yozilgan materiallarni aks ettirish bo‘yicha xizmatlar	710,3	91,9
Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari	172,0	37,1
Kimyo mahsulotlari	1 828,9	127,2
Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va farmatsevtika preparatlari	1 087,3	73,0
Rezina va plastmassa buyumlar	1 869,3	115,3
Boshqa nometall mineral buyumlar	1 814,0	95,1
Metallurgiya sanoati	7 230,3	119,2
Mashina va asbob-uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar	2 123,9	122,4
Kompyuterlar, elektron va optik uskunalar	779,3	69,1

davomi

Elektr uskunalar	5 080,6	118,9
Boshqa guruhlarga kiritilmagan mashinalar va uskunalar	1 648,1	116,0
Avtotransport vositalari, pritseplar va yarim pritseplar	1 906,0	88,7
Boshqa transport vositalari va uskunalar	327,2	106,5
Mebel	333,2	105,0
Boshqa mahsulotlar	964,6	163,3
Mashinalar va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish bo'yicha xizmatlar	526,6	72,0
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	1 855,6	105,3
Elektr,bug' ta'minoti tizimlari va konditsionerlari ishlab chiqarish va tarqatish	1 671,1	91,6
Gazsimon yoqilg'ilarni ishlab chiqarish va tarqatish	184,5	97,5
Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish	436,4	126,8
Suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash	253,4	110,8
Chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish	183,0	157,8
Iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish	15 962,2	100,8
shu jumladan:		
oziq-ovqat tovarlari	8 543,1	102,4
nooziq-ovqat tovarlari	6 423,0	100,5
Aroq va sharob mahsulotlari	996,1	111,9

Davlat va xususiy sektorning o'zaro munosabati mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy barqaror vaziyatni ta'minlashda xususiy biznesning manfaatdorligini oshirishda katta xizmat qiladi. O'z navbatida, mamlakatimizda davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish borasida olib borilayotgan islohotlar natijasi o'laroq Toshkent shahrida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida nodavlat sektorning ulushi salmoqli ekanligini ko'rish mumkin. Tarmoq korxonalari tomonidan joriy yilning yanvar-iyun oylarida 53 652,1 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi va sanoat ishlab chiqarish hajmiga 54,7 % ni tashkil etdi, shu bilan birga davlat sektorida 11 658,1 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarilib, umumiy hajmga nisbatan 21,7 % ni tashkil etdi, nodavlat sektorida 41 994,0 mlrd.so'mlik mahsulot ishlab chiqarilib, umumiy hajmga nisbatan 78,3 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish davlat va nodavlat sektorlarida 2023 -yil yanvar-iyun oylarida (*foiz hisobida*)



Sanoat sohasida modernizatsiyalash ko‘lamlarini jadallashtirish va kengaytirish bo‘yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida, sanoat sohasida faoliyat yuritayotgan korxonalarda ishlab chiqarishning jadal rivojlanishi davom ettirildi.

Tarmoq korxonalari tomonidan 2023-yil yanvar-iyun oylarida 53 652,1 mlrd. so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarilib, umumiy hajmga nisbatan iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi quyidagicha tavsiflanadi.

Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish iqtisodiyotning muhim omili bo‘lib, jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash mahsulotlari faoliyati sanoat ishlab chiqarish indeksi 95,7 % ni, qayta ishlash sanoati 107,8 % ni, elektr energiyasi, gaz, bug‘ va konditsiyalangan havo 105,3 % ni, suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig‘ish va qayta foydalanish bo‘yicha xizmatlar 126,8 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish *(umumiy hajmga nisbatan foizda)*



Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat mahsuloti turlarini ishlab chiqarish hajmi
(yirik korxonalar bo‘yicha)

	O‘lchov birligi	2023- yil yanvar-iyun	2022- yil yanvar-iyunga nisbatan % da
Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash			
Neft	*ming tn*	337,5	104,1
Gaz kondensanti	*ming tn*	334,3	88,0
Tabiiy gaz	*mln. kub.m*	16 462,3	90,4
Chaqiq tosh	*tonna*	247 988,8	71,3

	O‘lchov birligi	2023- yil yanvar-iyun	2022- yil yanvar-iyunga nisbatan % da
Qayta ishlash sanoati			
Yumshoq bug‘doy va spelta uni	*tonna*	62 752,0	182,5
Makaron mahsulotlari va shu kabi xamirdan tayyorlangan mahsulotlar	*tonna*	2 371,8	144,7
Quyiltirilmagan va shakar qo'shilmagan, yog 'liligi 6 % dan yuqori sut va qaymoq	*tonna*	6 579,0	2,9 m.
O‘simlik yog‘i (tozalangan)	*tonna*	2,3	0,5
Margarin va spredlar	*tonna*	1 992,4	87,8
Aroq - ming litr 100% spirt	*ming litr*	7 282,1	82,0
Konyak spirti - ming litr 100% spirt	*ming litr*	3 532,2	199,4
Uzum vinosini distillash yoki uzumn siqish natijasida olingan spirt nastoykalari - ming litr 100% spirt	*ming litr*	356,0	101,4
Uzum vinolari	*ming litr*	2 718,7	72,6
Pivo	*mln. dona*	45 301,1	111,6
Tamaki mahsulotlari, tamakidan tayyorlangan	*mln.dona*	704,8	69,3
Paxtadan yigirilgan ip	*tonna*	17 057,6	92,1
Tarkibida massasi bo‘yicha 85% yoki undan ortiq paxta tolasi bo‘lgan, sirt zichligi 200 g/kv.metrdan ko‘p bo‘lmagan, oqartirilmagan ip gazlamalari (bint, bog‘lash materiallari, tibbiy doka ishlab chiqarish uchun matolar)	ming kv.m	225,8	-
Mashinada yoki qo‘lda to‘qilgan trikotaj polotnolar	*tonna*	10 165,2	133,1
Gilam va gilamlar	ming kv.m	394,8	87,3
Paketlar va paketlarni qadoqlash	*tonna*	1 314,9	145,0
Trikotaj yoki to‘qilgan ustki kiyimlar	*ming dona*	379,0	69,7
Ichdan kiyiladigan trikotaj kiyimlar	*ming dona*	330	17,8

	O‘lchov birligi	2023- yil yanvar-iyun	2022- yil yanvar-iyunga nisbatan % da
Boshqa ish kiyimlari - ming so'm	*ming so'm*	10 239,0	
Yarim tsellyulozadan tayyorlangan gofrirovka qilish uchun qog'oz (o'rtacha taramlangan)	*tonna*	737,0	117,2
Daftarlar	*tonna*	57,0	-
Plastmassadan qutichalar, yashiklar, savatlar, panjarasimon idishlar va shu kabi buyumlar -	*tonna*	39 362,0	12,0 m.
Kitoblar, geografiya xaritalar, gidrografik yoki shu kabi kartalarning barcha turlari, reproduksiyalar, chizmalar va fotosuratlar, otkritkalarni bosib chiqarish bo‘yicha xizmatlar	*ming so‘m*	36 314 546,0	23,8
Gazetalarni bosib chiqarish bo‘yicha xizmatlar	*ming so‘m*	15 470 301,0	70,3
Bosib chiqarilgan pochta va gerbli markalari, titul hujjatlari, mikroprossesor kartochkalari, cheklar va boshqa qimmatli qog'ozlar va shu kabilarni bosib chiqarish bo'yicha xizmatlar	*ming so'm*	4 790 282,0	81,5
Haftada to‘rt iyunadan kam chiqadigan jurnallar va davriy nashrlarni bosib chiqarish bo‘yicha xizmatlar	*ming so‘m*	929 549,0	115,8
Yog'lash uchun ishlatiladigan moylar	*ming tonna*	2,4	77,2
Suyultirilgan propan va butan	*ming tonna*	276,0	98,0
Texnik oltingugurt	*tonna*	117 323,0	100,0
Murakkab organik erituvchilar va suyultirgichlar	*tonna*	52,0	65,0
Akril va vinil polimerlari asosidagi bo‘yoqlar va laklar, suv muhitida	*tonna*	7 900,0	98,1
Sintetik polimerlar asosidagi bo‘yoqlar va laklar	*tonna*	3 873,0	111,4
Denaturlanmagan, spirt konsentratsiyasi 80 % hajmdan kam bo‘lmagan etil spirti	*ming litr*	5 985,0	103,5

	O‘lchov birligi	2023- yil yanvar-iyun	2022- yil yanvar-iyunga nisbatan % da
Birlamchi formalardagi polipropilen	*tonna*	5 759,2	108,5
Chakana savdo uchun qadoqlangan yoki dozalarga bo'lingan, tarkibida penitsilin yoki uning hosilalari bo'lgan, penitsilin kislotasi tuzilmasiga ega yoki tarkibida streptomitsin yoki uning hosilalari bo'lgan medikamentlar	*tonna*	85,9	84,3
Tarkibida gormonlar yoki antibiotiklar bo‘lmagan medikamentlar	*tonna*	7 505,1	69,7
Chakana savdo uchun qadoqlangan, tarkibida boshqa antibiotiklar bo‘lgan medikamentlar	tonna	1 083,6	98,4
Binolar va inshootlar uchun sement, beton yoki sun’iy toshdan yig‘ma konstruksiyalar elementlari va boshqa buyumlar	*tonna*	225 490,5	95,2
Butilkalar	*ming dona*	133 092,8	50,6
Sement, beton yoki sun’iy toshdan qurilish uchun g‘isht va bloklar	*tonna*	92 677,0	28,0
Temirdan yoki legirlanmagan po‘latdan bolg‘alangan, issiqlayin prokatka qilingan, issiqlayin cho‘zilgan yoki ekstrudirlangan chiviqlar va sterjenlar, jumladan prokatkadan keyin kalavalarga o‘ralgan chiviqlar	*tonna*	52 373,3	90,2
Po'latdan choksiz neft va gaz	*tonna*	15 247,3	86,3
Mis sim	*tonna*	19 916,0	142,8
Alyuminiydan elektr izolyatsiyasiz o‘ralgan sim, po‘lat arqonlar, to‘qilgan shnurlar va shu kabi buyumlar	tonna	615,6	5,4 m.
Temir yoki po‘lat simdan matolar, panjaralar, to‘rlar va to‘siqlar	*tonna*	3	105,6
Elektrsiz isitiladigan markaziy isitish radiatorlari va ularning qora metallardan yasalgan qismlari	*tonna*	5 582,6	140,2

	O‘lchov birligi	2023- yil yanvar-iyun	2022- yil yanvar-iyunga nisbatan % da
Qishloq xo'jaligi, bog'dorchilik yoki o'rmon xo'jaligida ishlatish uchun dastakli asboblar	*tonna*	5,1	17,4 m.
1 kV dan ortiq bo‘lmagan kuchlanish uchun avtomatik o‘chiruvchilar	*tonna*	1,4	15,1
Kuchlanishi 1 kV dan ortiq bo'lmagam elektr zanjirini o'chirish, almashlab ulash yoki himoyalash uchun apparatura bilan jihozlangan taqsimlash shitlarini va boshqa panellar	*tonna*	34,2	119,2
Izolyatsiya qilingan o'rash simlari	*tonna*	1 041,4	84,3
Kuchlanishi 1 kV dan ortiq bo'lgan (yuqori voltli), boshqa elektr toki o'tkazgichlari	*tonna*	5 476	141,2
Sovutkich va muzlatkichlar -	*dona*	342 999,0	113,4
Traktorlar	*dona*	10	23,3
Avtomobil dvigateli	*dona*	105 597	90,8
Ixtisoslashgan yengil avtomobillar - dona	*dona*	219,0	-

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash

Elektroyenergiya	*mln.kVt soat*	1 937,5	7,8 m.
Issiqlik energiyasi	*ming Gkal*	5 982,4	86,0
Elektr energiyasini uzatish bo‘yicha xizmatlar	*ming so‘m*	457 634,0	114,6

Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish

Tabiiy suv, suvga ishlov berish va suv bilan ta’minlash bo‘yicha xizmatlar	*ming so‘m*	165 211 509,0	125,8
Oqova suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar	*ming so‘m*	88 233 244,0	111,5

	O‘lchov birligi	2023- yil yanvar-iyun	2022- yil yanvar-iyunga nisbatan % da
Xavfsiz chiqindilarini yig‘ish bo‘yicha xizmatlar	*ming so‘m*	66 760 488,9	108,0
Plastmass chiqindilar	*tonna*	886,9	147,1
Xavfsiz metall chiqindilar	*tonna*	1 609,0	115,3
Boshqa guruhlarga kiritilmagan, qayta foydalanishga yaroqli yig'ilgan boshqa xavfsiz chiqindilar	*tonna*	20 239,3	66,8
Xavfli (zaharli) kimyoviy chiqindilar	*tonna*	156,0	104,9

Hududlar bo‘yicha sanoat ishlab chiqarish hajmi

Toshkent shahrida sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar hududda ishlab chiqarish hajmi va sifatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Toshkent shahri sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko‘p Yashnobod tumani (Toshkent shahri sanoat ishlab chiqarish hajmining 25,5%), Sergeli tumani (13,2%), Olmazor tumani (7,5%), Bektemir tumani (7,5 %), Chilonzor tumani (7,1 %), Yangihayot tumani (6,4 %) hissasiga to‘g‘ri keladi. Shuning bilan birga, eng kam ulush Yunusabod (4,1%), Shayhontohur tumani (5,5%), Uchtepa (5,5%) tumanlariga to‘g‘ri keladi.

Hududlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, *foizda*

(2023- yil yanvar-iyun oylarida)



Dunyodagi eng rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, sanoat mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, Toshkent shahri va tumanlarida ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmini tumanlararo hamda tumanlarni shahar ko‘rsatkichlari bilan taqqoslash orqali tahlil qilish, sanoat mahsulotini aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan miqdori dinamikasini kuzatib borish, hududlardagi ustuvor vazifalarni va o‘sish nuqtalarini belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. O‘z navbatida, joriy yilning yanvar-iyun oylarida Toshkent shahrida sanoat mahsuloti ishlab chiqarilishi 53 652,1 mlrd. so‘mni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 104,5 % ni tashkil etdi.

Toshkent shahrida ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmi aholi jon boshiga 18 016,4 ming so‘mni yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 101,3 % ga yetkazilganligini kuzatishimiz mumkin. Shuningdek, Toshkent shahrida iste’mol tovarlari ishlab chiqarilishi 15 962,2 mlrd. so‘mni tashkil etib, Toshkent shahrida ishlab chiqarilgan iste’mol tovarlari hajmi aholi jon boshiga 5 360,1 ming so‘mni yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 97,7 % ga yetkazilganligini kuzatishimiz mumkin.

Iste’mol tovarlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulotlar ishlab chiqarilishini rag‘batlantirish va turlarini kengaytirish, iste’mol tovarlari ishlab chiqarish hajmini 2022-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan (0,8 % ga) oshishiga ta’sir ko‘rsatdi, jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi esa 29,8 % ni tashil etdi.

Iste’mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, jami iste’mol tovarlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan, *foizda*

(2023- yil yanvar-iyun oylarida)



2023-yilning yanvar-iyun oylarida oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish 8 543,1 mlrd. so‘mga yetkazilib, jami iste’mol tovarlaridagi ulushi 53,5 %, nooziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish 6 423,0 mlrd. so‘m, jami iste’mol tovarlaridagi ulushi 40,2 %, alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish 996,1 mlrd. so‘m hisoblanib, jami iste’mol tovarlaridagi ulushi 6,2 % ni tashkil etdi.

Hududlarning jami iste’mol tovarlari ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, *foizda*

(2023- yil yanvar-iyun oylarida)



Hududlarda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish indeksi, *foizda*

(2023- yil yanvar-iyun oylarida, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan)



Hududlarda iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmlarning o'sish sur'atlari, *foizda* *(2023- yil yanvar-iyun oylarida, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan)*



Bunda, Toshkent shahrida sanoat ishlab chiqarishning eng katta fizik hajmi indeksi Yunusobod tumani (132,0 %), Uchtepa tumani (129,3 %), Mirzo Ulug'bek tumani (129,3 %), Sergeli tumani (111,8 %) va Yashnabod tumanlarida (105,9 %) kuzatilmoqda.

Shu o'rinda iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda eng kichik o'sish sur'atlari Chilonzor tumanlarida (68,1 %), Shayxontohur tumani (79,1 %) va Mirobod tumanlarida (81,8 %) kuzatilgan.

Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda bir maromdagi o'sish ta'minlandi. Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2023-yilning yanvar-iyun oylarida Toshkent shahrida sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi 35,1 % ni tashkil etgan.

Hududlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, *foizda* *(yanvar-iyun)*

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Olmazor tumani (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi (64,7 %), Yunusobod (57,1 %) tumanlarida kuzatildi. Shu bilan birga, eng kichik ulushi Yashnobod (15,1 %) va Yangihayot (23,5 %) tumanlarida kuzatildi.

2023-yil yanvar-iyun oylarida tumanlar kesimida kichik biznesning jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, *foizda*



Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining ishlab chiqarilishi

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 16 862,3 mlrd. so‘mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

O‘tgan yilda qo‘shma korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 33,2 % ni tashkil etgan bo‘lsa, hisobot davrida bu ko‘rsatkich 31,4 % ni tashkil qildi.

Qo‘shma korxonalar tomonidan joriy yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotining Respublika sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 7,0 % ni tashkil etdi, bu iqtisodiyotni isloh qilish va liberallashtirishni, jahon bozorida mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish imkonini berdi.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, *foizda*
2023- yil yanvar-iyun oylarida

Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda Toshkent shahrida 11,5 minga yaqin sanoat korxonalari faoliyat ko‘rsatayotgan bo‘lib, ulardan 1394 ta korxona (jami faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarning 12,2 %) Olmazor tumaniga, 1340 ta korxona (11,7 %) Chilonzor tumaniga, 1248 ta korxona (10,9 %) Uchtepa tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi.

Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlik

(2023- yil 1-iyul holatiga)



Yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlik

(2023- yil yanvar-iyun oylarida)



2023-yil yanvar-iyun oylarida Toshkent shahrida 765 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo‘lib, ulardan qariyb 11,5% Chilonzor, 11,1% Olmazor, 10,5 % Yunusobod, 10,5 % Mirzo Ulug’bek, 10,2% Yashnabod tumanlari yuqori ulushga ega.

Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturining asosiy ko‘rsatkichlari
(2023- yil yanvar-iyun oylarida)

	Loyihalar soni, birlikda	Ishlab chiqarish hajmi, mln. so‘m	Eksportga sotilgan mahsulot hajmi, ming AQSh dollari	Yangi tashkil qilingan ish o‘rinlari soni, birlikda
Jami:	307	8 071 101,8	110 701,0	1178
shundan;				
Uchtepa	18	105 351,7	584,0	142
Bektemir	48	328 759,9	6867,1	12
Yunusobod	7	130 929,9	44,0	157
Mirzo Ulug‘bek	8	129 007,0	543,0	44
Mirobod	29	32 797,7	729,0	18
Shayxontohur	13	393 078,3	551,0	-
Olmazor	52	675 088,3	4922,0	374
Sergeli	41	2 136 103,0	2194,1	81
Yakkasaroy	24	261 844,0	505,0	22
Yashnobod	21	1 321 155,0	31562,1	63
Yangihayot	17	175 165,0	1296,6	28
Chilonzor	29	2 381 822,0	60903,1	237

Mahalliylashtirish dasturining jami ishlab chiqarish hajmida tumanlarning ulushi, *foizda* 2023- yil yanvar-iyun oylarida



Statistik ko‘rsatkichlarga tushuntirish

Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi – korxona tomonidan ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar, yarim tayyor, chetga sotishga mo‘ljallangan, o‘zining nosanoat bo‘linmalariga va kapital qurilishga mo‘ljallangan mahsulotlar hajmini o‘z ichiga oladi; ishlab chiqarilishi hisobot davrida tugallanmagan uzoq muddatli mahsulotlarni ishlab chiqarish bo‘yicha ishlar; sanoat tusidagi ishlar (xizmatlar);

Sanoat ishlab chiqarishda o‘zgarish indekslari – solishtirma davrlarda mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) fizik hajmining o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir; Iste’mol mollari – asosan shaxsiy iste’mol yoki foyda olish bilan bog‘liq bo‘lmagan boshqa maqsadlarda foydalanadigan sanoat mahsulotlari; iste’mol mollari ishlab chiqarish hajmi amaldagi narxlarda (QQS va aksizlar bundan mustasno) hisoblab chiqiladi;

Natura ko‘rinishida sanoat ishlab chiqarish hajmi – boshqa korxonalarga jo‘natish uchun yoki ishlab chiqarishga mo‘ljallangan mahsulotlarni, shu jumladan korxonaning sanoat ehtiyojlari uchun sarflangan mahsulotlarni o‘z ichiga oladi, ya’ni yalpi mahsulot;

Ishlab chiqarishni texnologik rivojlanish darajasiga ko‘ra guruhlash Yevrostat texnologik faoliyatining tasnifi asosida ishlab chiqilgan.

Mahalliylashtirish darajasi – ishlab chiqarishda ishlatiladigan mahalliy materiallar, mehnat va intellektual resurslarning ulushini belgilaydi; Mahalliylashtirish darajasini hisoblashda xarajatlar, soliq to‘lovlari va ishlab chiqarish jarayoniga bevosita aloqador bo‘lmagan boshqa imtiyozlar hisobga olinmaydi; mahsulot sotish hajmi – savdo narxlarida keltiriladi (QQS va aksiyalar bundan mustasno);

Joriy yilning yanvar–iyun oylarida Toshkent shahrida iqtisodiyot va ijtimoiy sohani rivojlantirish uchun jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 28 454,0 mlrd. so‘m asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirildi va 2022-yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 111,0 % ni tashkil qildi.

Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi va o‘sish sur’ati

(2023- yil yanvar-iyun)



Asosiy kapitalga investitsiyalarning o‘zlashtirilgan hajmi bo‘yicha tumanlar kesimida Yunusobod tumani yetakchilik qilmoqda. Ushbu hududda jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 16,7 % ga o‘zlashtirildi.

Shuningdek, Uchtepa tumani jami investitsiyalar hajmidan 12,2 % ni, Shayxontohur tumani 10,6 % ni tashkil etmoqda.

Yakkasaroy 10,3 %, Yashnobod, Mirobod tumanlarida ushbu ko‘rsatkich mos ravishda 9,6 hamda 9,1 % ni tashkil etdi.

Bektemir va Yangihayot tumanlarida investitsiyalar eng kam o‘zlashtirilgan bo‘lib, har birining Toshkent shahridagi ulushi 1,8 % va 2,3 % ni tashkil etdi.

Markazlashgan va markazlashmagan investitsiyalarning hududlar bo‘yicha taqsimlanishi *(2023- yil yanvar-iyun)*

mln. so‘m

	Jami investitsiyalar	Markazlashgan	Markazlashmagan
Toshkent shahri	**28 453 994,1**	**4 523 688,9**	**23 930 305,2**
tumanlar:			
Bektemir	518 902,0	362,0	518 540,0
Mirzo Ulug‘bek	2 119 786,8	117 623,4	2 002 163,4
Mirobod	2 451 923,3	181 908,6	2 270 014,7
Olmazor	2 249 833,8	82 555,8	2 167 278,0
Sergeli	1 205 482,2	62 812,0	1 142 670,2
Uchtepa	3 472 416,0	2 416 885,3	1 055 530,7
Chilonzor	2 371 936,7	127 468,1	2 244 468,6
Shayxontohur	3 012 671,4	328 707,7	2 683 963,7
Yunusobod	4 744 307,4	554 703,4	4 189 604,0
Yakkasaroy	2 934 726,3	428 961,1	2 505 765,2
Yangihayot	644 739,1	4 650,0	640 089,1
Yashnobod	2 727 269,1	217 051,5	2 510 217,6

Markazlashgan investitsiyalarning asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan hajmi bo‘yicha tumanlar kesimida Uchtepa tumani yetakchilik qilmoqda. Ushbu hududda jami markazlashgan asosiy kapitalga investitsiyalarning 53,4 %ga o‘zlashtirildi.

Shuningdek, ushbu o‘zlashtirish bo‘yicha Yunusobod tumani 12,3% ni, Yakkasaroy tumani 9,5 % ni tashkil etmoqda.

Markazlashmagan investitsiyalarning asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan hajmi bo‘yicha tumanlar kesimida Yunusobod tumani yetakchilik qilmoqda. Ushbu hududda jami markazlashmagan asosiy kapitalga investitsiyalarning 17,5 %ga o‘zlashtirildi.

Shuningdek, ushbu o‘zlashtirish bo‘yicha Shayxontohur tumani 11,2 % ni, Yashnobod tumani 10,5 % ni tashkil etmoqda.

Moliyalashtirish manbalari bo‘yicha asosiy kapitalga investitsiyalar
(2023- yil yanvar-iyun)

	mlrd. so‘m	O‘sish sur’ati, % da	Jamiga nisbatan ulushi,% da
Asosiy kapitalga investitsiyalar	**28 454,0**	**111,0**	**100,0**
shu jumladan:			
Markazlashgan investitsiyalar:	**4 523,7**	**159,4**	**15,9**
budjet mablag‘lari	1 397,1	76,2	4,9
Davlat maqsadli jamg‘armalari	6,4	90,7	0,02
Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi	24,0	39,1	0,1
O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi kreditlar	3 096,2	330,8	10,9
Markazlashmagan investitsiyalar:	**23 930,3**	**104,6**	**84,1**
korxona mablag‘i	13 383,5	109,1	47,1
aholi mablag‘i	1 801,0	118,3	6,3
to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya va kreditlar	5 759,6	77,9	20,2
tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari	2 986,3	178,2	10,5

Markazlashgan va markazlashmagan investitsiyalarning jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmidagi ulushi,
(umumiy hajmga nisbatan, %da)



Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan 4 523,7 mlrd. so‘m yoki o‘tgan yilning joriy davriga nisbatan 159,4 % (jami investitsiyalar hajmining 15,9 % i)ga kam o‘zlashtirildi, mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan esa 23930,3 mlrd.so‘m yoki o‘tgan yilning mazkur davriga nisbatan 113,3% (jami investitsiyalardagi ulushi 88,9 %) ko‘p o‘zlashtirildi.

Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalarning markazlashgan moliyalashtirish manbalari



Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalarning markazlashmagan moliyalashtirish manbalarining jami investitsiyalar hajmidagi ulushi, *foizda*



Markazlashmagan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari asosan korxona mablag‘lari (jami investitsiyalar hajmiga nisbatan 47,1 %), to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya va kafolatlanmagan kreditlar (20,2 %) hisobiga to‘g‘ri keldi.

Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha tarkibi, *foizda* *(2023- yil yanvar-iyun)*



Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha tarkibida Sanoat yetakchilik qilmoqda. Ushbu tarmoqda jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 4 536,9 mlrd. so‘m yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 15,9 % o‘zlashtirilgan.

Keyingi o‘rinda tashish va saqlash tarmog‘i bo‘lib, jami moliyalashtirish manbai hisobidan 3 882,2 mlrd. so‘m yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 13,7 % o‘zlashtirilgan.

Sanoat tarmog‘i tarkibida eng ko‘p investitsiya o‘zlashtirilgan 3 faoliyat turi quyidagilar:

- Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 202,7 mlrd.so‘m (jami asosiy kapitalga investitsiyalardagi ulushi 0,7 %).

-Ishlab chiqarish sanoati 3 847,5 mlrd.so‘m (jami asosiy kapitalga investitsiyalardagi ulushi 13,5 %);

- Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash 486,8 mlrd. so‘m (jami asosiy kapitalga investitsiyalardagi ulushi 1,7 %);

Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalarning mulkchilik shakllari bo‘yicha texnologik tarkibi



Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida: Toshkent shahri bo‘yicha qurilish–montaj ishlarining ulushi 33,8 % ni, mashina, uskuna, inventar sotib olishga xarajatlar 54,8 % ni hamda boshqa harajatlar ulushi 11,4 % ni tashkil etdi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning mulkchilik shakllari bo‘yicha texnologik tarkibi
(2023- yil yanvar-iyun)

	Jami	Davlat	Nodavlat
Jami, *mlrd. so‘m*	**28 454,0**	**2 679,6**	**25 774,4**
shu jumladan jamiga nisbatan % da:	*100,0*	*9,4*	*90,6*
Qurilish – montaj ishlari	9 616,7	1 335,5	8 281,2
Mashina, uskuna, inventar	15 593,7	1 184,9	14 408,8
Boshqa xarajatlar	3 243,6	159,2	3 084,4

Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi, foizda
(2023-yil yanvar-iyun)

Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida: Qurilish – montaj ishlari bo‘yicha Mirzo Ulug‘bek tumanida 57,0 %, Shayxontohur tumanida 55,3 %, Sergili tumanida 47,2 %, Mirobod tumanida 42,8 %, Yashnobod tumanida 41,3 % ni tashkil etdi. Mashina, uskuna, inventar sotib olishga harajatlar bo‘yicha Uchtepa tumanida 79,9 %, Bektemir tumanida 75,7 %, Yunusobod tumanida 65,9 %, Yakkasaroy tumanida 65,8 %, Olmazor tumanida 52,7 %, Yashnobod tumanida 52,6 % ni tashkil qildi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi, *foizda*

(2023- yil yanvar-iyun)



Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibida: yangi qurilish bo‘yicha Shayxontohur tumanida 68,3 %, Mirobod tumanida 55,0 % , Mirzo Ulug‘bek tumanida 50,3 %, Sergeli tumanida 49,4 %, Olmazor tumanida 48,7 % ni tashkil etdi. Kengaytirish, rekonstruksiya, modernizatsiya, texnik qayta qurollantirish bo‘yicha Bektemir tumanida 51,5 % ni, Yunusobod tumanida 44,1 % ni, Yakkasaroy tumanida 41,6 % ni, Sergili tumanida 32,8 %, Yashnobod tumanida 30,1%, hamda asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibida boshqalar yo‘nalishida Uchtepa tumanida 75,8 %, Chilonzor tumanida 52,7 %, Yakkasaroy tumanida 39,8 % ni va Yangihayot tumanida 30,9 % ni tashkil qildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha o‘zlashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar
(2023- yil yanvar-iyun)

	mlrd. so‘m	Jamiga nisbatan ulushi, % da	
		2022- y.	2023- y.
Asosiy kapitalga investitsiyalar - jami	**28 454,0**	**100,0**	**100,0**
shu jumladan iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha:			
Qishloq xo`jaligi	302,9	0,2	1,1
Tog`-kon sanoati	202,7	1,2	0,7
Ishlab chiqarish sanoati	3 847,5	17,3	13,5
Elektr gaz bug’ va konditsanlangan xavo	486,8	0,9	1,7
San`at, ko`ngil ochish va dam olish	1 028,4	1,0	3,6
Suv bilan ta`minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig`ish va utilizatsiya qilish	195,5	0,6	0,7
Qurilish	1 831,4	13,9	6,4
Ulgurji va chakana savdo	1 745,5	7,0	6,1
Tashish va saqlash	3 882,2	6,2	13,7
Yashash va ovqatlanish bo`yicha	422,3	1,0	1,3
Aloqa va axborotlashtirish	4 278,5	13,6	15,0
Moliya va sug`urta faoliyati	1 589,2	3,3	5,6
Ko'chmas mulk	710,7	3,5	2,5
Professional, ilmiy va tehnik faoliyat	632,7	1,9	2,2
Ma’muriy va qo’shimcha xizmatlar	444,2	2,0	1,6
Davlat boshqaruv, mudofasi majburiy ijtimoiy ta’minot	768,1	5,2	2,7
Ta`lim	1 296,5	2,8	4,6
Sog`liqni saqlash va ijtimoiy soha	1 187,9	5,7	4,2
Boshqa shaxsiy xizmatlar ko‘rsatish	326,0	1,3	1,2
Turar-joy qurilishi	3 275,0	11,4	11,6

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha asosiy kapitalga investitsiyalarning o‘zlashtirilishi: Ishlab chiqarish sanoati 3 847,5 mlrd. so‘m (jami investitsiyalar hajmidagi ulushi 13,5 %), oziq–ovqat, ichimlik va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish faoliyati turida 962,4 mlrd. so‘m (3,4 %), metallurgiya sanoati ishlab chiqarish faoliyati turida 339,9 mlrd.so‘m (1,2 %), kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish faoliyati turida 151,3 mlrd. so‘m (0,5 %), boshqa nometal mineral mahsulotlar ishlab chiqarish faoliyat turida 154,1 mlrd. so‘m (0,5 %), tayyor metall buyumlarni ishlab chiqarish faoliyati turida 168,1 mlrd. so‘m (0,6 %), to‘qimachilik mahsulotlari va kiyim-kechak ishlab chiqarish sanoatida 141,2 mlrd. so‘m (0,4 %), elektr uskunalar ishlab chiqarish sanoatida 673,9 mlrd. so‘m (2,4 %) elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash faoliyat turida 486,7 mlrd. so‘m (1,7 %), qurilish faoliyati turida 1 831,4 mlrd. so‘m (6,4 %), yashash va ovqatlanish faoliyat turida 422,3 mlrd. so‘m (1,3 %), ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalari va motosikllarni ta’mirlash faoliyat turida 1 745,5 mlrd. so‘m (6,1 %), tashish va saqlash faoliyati turida 3 882,2 mlrd. so‘m (13,7 %), axborot va aloqa faoliyat turida 4 278,5 mlrd. so‘m (15,0 %), moliya va sug‘urta faoliyati turida 1 589,2 mlrd. so‘m (5,6 %), sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish 1 187,9 mlrd. so‘m (4,2 %), ta’lim sohasida 1 296,5 mlrd. so‘m (4,6 %), professional, ilmiy va texnik faoliat turida 632,7 mlrd. so‘m (2,2 %), jami faoliyat turlaridan tashqari turar joy qurilishida 3 275,0 mlrd. so‘m (11,6 %) investitsiyalar o‘zlashtirildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha asosiy kapitalga investitsiyalar tarkibi, *foizda* *(2023- yil yanvar-iyun)*



Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar

2023-yil yanvar-iyun oylarida 3 117,6 mlrd.so‘m yoki 2022-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 156,8 % asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar o‘zlashtirildi. Xorijiy investitsiya va kreditlarning jami asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalardagi ulushi 25,7 % tashkil etdi. Xorijiy investitsiya va kreditlarning eng katta ulushi Yakkasaroy tumanida 15,4 %, Shayxontohur tumanida 15,0 %, Yunusobod tumanida 12,3 %, Yashnobod tumanida 10,9 % ga to‘g‘ri keldi.

Hududlarda o‘zlashtirilgan xorijiy investitsiyalar

(2023- yil yanvar-iyun, mlrd. so‘m)

	Jami xorijiy investitsiya va kreditlar	shu jumladan:		To‘g‘ridan-to‘g‘ri va boshqa investitsiya va kreditlar	shu jumladan:	
		investi-tsiya	kredit		investitsiya	kredit
Toshkent sh.	**8 855,8**	**4389,6**	**4466,2**	**4450,3**	**3080,3**	**1370,0**
tumanlar:						
Bektemir	-	-	-	-	-	-
Mirzo Ulug‘bek	573,9	555,2	18,7	573,6	555,1	18,5
Mirobod	432,1	419,6	12,5	158,3	158,3	-
Olmazor	615,2	414,0	201,2	459,3	288,1	171,2
Sergeli	239,2	170,9	68,3	239,1	170,8	68,3
Uchtepa	2544,9	369,9	2175,0	66,3	44,2	22,1
Chilonzor	448,9	317,1	131,8	390,1	316,4	73,7
Shayxontohur	799,1	237,9	561,2	783,4	237,9	545,5
Yunusobod	1319,1	468,3	850,8	716,4	284,3	432,1
Yakkasaroy	1261,8	853,7	408,1	522,4	522,4	-
Yangihayot	174,9	136,3	38,6	94,7	56,1	38,6
Yashnobod	446,7	446,7	-	446,7	446,7	-

Xorijiy investitsiya va kreditlarni o‘zlashtirish *(mlrd. so‘m)*



To‘g‘ridan-to‘g‘ri, boshqa xorijiy investitsiya va kreditlarning o‘zlashtirilgan hajmi 2023-yilning yanvar-iyunida 4 450,3 mlrd. so‘mni yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 106,3 %ni tashkil qildi.

Ayrim iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibi, foizda

2023- yil yanvar-iyun



Quyidagi iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha xorijiy investitsiya va kreditlar eng ko‘p o‘zlashtirildi: Ishlab chiqarish sanoati 13,5 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan (10,1 % ga) kamaygan.

Shu bilan birga, quyidagi iqtisodiy faoliyat turlariga xorijiy investitsiya va kreditlar kam o‘zlashtirildi: Tog‘-kon sanoati faoliyat 0,7 %, ta’lim 4,6 %, qishloq xo‘jaligi 1,1 %.

Ijtimoiy soha ob’ektlarining qurilishi

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida 1 230 o‘rinli ijtimoiy soha obektlari ishga tushirildi.

Umumiy maydoni 273,5 ming kv.m. bo‘lgan 1 092 ta turar joy obekti yangi qurilib, ishga tushirilgan.

Ishga tushirilgan turar joylarning hududlar kesimida ko‘radigan bo‘lsak, eng ko‘pi Mirzo Ulug‘bek tumanida ishga tushirilgan 59,5 ming kv.m va u shahar bo‘yicha ishga tushirilgan jami umumiy maydonning 21,8 % ni tashkil etdi. Keyingi o‘rinda, Sergeli tumani egallagan bo‘lib, 37,3 ming kv.m shahar bo‘yicha ishga tushirilgan jami umumiy maydonning 13,6 % ni tashkil etishgan.

Qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar–iyun oylarida 16 266,9 mlrd. so‘m yoki 2022-yilning yanvar–iyuniga nisbatan 100,1 % qurilish ishlari bajarildi.

2023 - yil yanvar-iyun oylarida tumanlar kesimida qurilish ishlarining o‘sish sur’ati, *o‘tgan yilning mos davriga nisbatan foizda*



Qurilish ishlari bo‘yicha yuqori o‘sish sur’atlari quyidagi tumanlarda kuzatildi: Olmazor tumanida 138,9 % va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 54,2 % punktga ko‘paydi, Yashnobod, Mirzo Ulug’bek tumanlarida 126,0 % va 125,6 % dan bo‘lib (24,7 % va 12,8 % punktga), Nodavlat mulkchilik shaklidagi tashkilotlar tomonida 15 863,4 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 97,5 foizni tashkil qildi.

Hududlar kesimida qurilish ishlari

(2023- yil yanvar-iyun oylarida)

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so‘m)	Umumiy hajmga nisbatan ulushi, %da	Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari (mlrd. so‘m)
Toshkent shahar	**16 266,9**	**100,0**	**9 307,6**
tumanlar:			
Bektemir	466,4	2,9	303,4
Mirzo Ulug‘bek	1 990,3	12,2	928,1
Mirobod	2 140,7	13,2	1 053,1
Olmazor	1 285,7	7,9	580,9
Sergeli	691,3	4,2	369,2
Uchtepa	690,9	4,3	512,5
Chilonzor	1 640,3	10,1	1 073,1
Shayxontohur	1 320,8	8,1	781,1
Yunusobod	2 146,8	13,2	1 770,6
Yakkasaroy	1 793,7	11,0	734,3
Yangihayot	736,0	4,5	399,8
Yashnobod	1 364,0	8,4	801,5

Mulkchilik shakllari bo‘yicha qurilish tashkilotlarining o‘z kuchlari bilan bajargan qurilish ishlari taqsimoti



Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha bajarilgan qurilish ishlari

(mlrd. so‘m)



Qurilish ishlari umumiy hajmining 63,4 foizi binolar va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish ishlari, 18,6 foizi fuqarolik qurilishi ob’ektlarini qurish bo‘yicha qurilish ishlari va 18,0 foizi ixtisoslashtirilgan qurilish ishlariga to‘g‘ri keldi.

STATISTIK KO‘RSATKICHLARGA IZOHLAR

Nomoliyaviy aktivlarga kiritilgan investitsiyalar bu – real mablag‘larni yaratishga yo‘naltirilgan investitsiyalar bo‘lib, quyidagilarni o‘z ichiga oladi: asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar, kapital ta’mirlashga xarajatlar, nomoddiy aktivlarga kiritilgan investitsiyalar (patentlar, litsenziyalar, dasturiy mahsulotlar, yer maydonlaridan va tabiiy resurslardan foydalanish huquqlari va boshqalar).

Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalarga-barcha turdagi qurilish ishlariga qilingan xarajatlar; asbob-uskunalarni montaj qilish bo‘yicha xarajatlar; mashina, asbob-uskunalar (montaj talab etiladigan va talab etilmaydigan), transport vositalari, jihoz va xo‘jalik inventarini sotib olish; boshqa kapital ishlar va xarajatlar kiradi. Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar, ilgari boshqa tashkilotlarning asosiy fondlarida hisobga olingan asbob-uskunalar, binolar va inshootlar (yoki ularning ehtiyot qismlari)ni sotib olishga qilingan xarajatlarsiz keltirilgan.

Chet el investitsiyalari – asosan kelgusida foyda olish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi hududidagi korxona va tashkilotlarga kiritilgan chet el kapitali.

Investorlar – yuridik va jismoniy shaxslar bo‘lib, qarorlarni qabul qiluvchi va o‘z mablag‘lari, qarz mablag‘lari yoki jalb qilingan mablag‘larni investitsiya ko‘rinishida investitsion loyihalarga kiritishni amalga oshiruvchi hamda ulardan maqsadli foydalanilishini ta’minlab beruvchi investitsion faoliyat subyektlari hisoblanadi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar bu – korxonaga to‘liq egalik qiluvchi yoki korxona aksionerlik kapitalining 10 foizidan kam bo‘lmagan qismini nazorat qiluvchi, ya’ni korxonani boshqarishda ishtirok etish huquqigi ega bo‘lgan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investor yuridik yoki jismoniy shaxs tomonidan kiritilgan investitsiyalar.

Davlat mulkchiligi- mulkchilik shakllaridan biri, davlatga qarashli va uning o‘z vazifalarini bajarishi uchun zarur barcha mol-mulklar va mulkiy huquqlardir.

Asosiy kapital – kapitalning asosiy ishlab chiqarish vositalari ni o‘z ichiga oluvchi, iqtisodiy jihatdan o‘z qiymatini ishlab chiqarilgan tovarlarga asta-sekin va uzoq muddatda o‘tkazib boruvchi qismi. Asosiy kapital pul shaklida uskuna, mashina-mexanizmlar, bino-inshootlar va boshqalar qiymatidan iborat bo‘lib, ular sotib olingan paytdagi bozor narxi bilan hisoblanadi. Asosiy kapital qiymatining bir qismi har yili mahsulotning ishlab chiqarish va sotish harajatlariga kiradi va amortizatsiya ajratmalari tarzida maxsus amortizatsiya fondida jamg‘ariladi.

Buyurtmachilar – investitsion jarayonning qatnashchilari. Buyurtmachi sifatida investorning o‘zi, shuningdek, investor tomonidan amaldagi korxonalarni, binolarni, inshootlarni yangi qurilishi, qayta ta’mirlash, kengaytirish va texnik qayta qurollantirishni amalga oshirishlari uchun vakil etib tayinlangan jismoniy va yuridik shaxslar faoliyat ko‘rsatishlari mumkin. Shu bilan birga buyurtmachi investitsion jarayon qatnashchilarining tadbirkorlik va boshqa faoliyatiga, agarda ular orasidagi shartnomada nazarda tutilmagan bo‘lsa, aralashmasliklari lozim.

Pudratchi – kapital qurilish uchun pudrat shartnomasi asosida bino va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish-montaj, qayta ta’mirlash, kapital ta’mirlash hamda texnologik va boshqa uskunalarni montaj qilish, sozlash va boshqa pudrat ishlarini bajarish bilan shug‘ullanadi.

Qurilish — biror inshootni tayyorlash jarayoni, shuningdek shunday jarayon ketayotgan joydir. Qurilish murakkab jarayon bo‘lib, unda bir necha vazifalar amalga oshiriladi. Bu jarayon moddiy ishlab chiqarishning yirik sohalaridan biri bo‘lib, turli maqsadlardagi bino va inshootlarni qurish va rekonstruksiya qilish; ishni yuritish uchun foydalaniladigan hudud bilan birga qurilayotgan bino (inshoot); keng ma’noda yaratuvchilik jarayoni hisoblanadi.

Rekonstruksiya — mavjud narsani yaxshilash, amaliy ahamiyatini oshirish, takomillashtirish maqsadida tubdan qayta qurish jarayonidir. Bunda qoldiklariga, yozma manbalarga asoslanib, biror narsa qiyofasini yoki dastlabki ko‘rinishini tiklash, qurish hisoblanadi. Rekonstruksiya chizma, rasm, tasvir, loyiha va h.k. orqali amalga oshiriladi.

Kapital ta'mirlash — qurilish konstruksiyalarini, shuningdek, muhandislik jihozlarini kommunikatsiyalar bilan tiklash yoki to'liq almashtirish tushuniladi. Amalda kapital ta'mirlash binoning tashqi ko'rinishini to‘liq yoki qisman yangilashda ifodalanishi mumkin.

Joriy ta’mirlash - bu xizmat ko‘rsatilayotgan ob'ektni shikastlanish va nosozliklardan o‘z vaqtida va tizimli ravishda himoya qilishga qaratilgan tadbirlar tushuniladi.

Xizmatlar sohasini rivojlantirish ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatda olib borilayotgan bozor islohotlari jamiyatni rivojlantirishning eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini hal qilishda xizmat ko‘rsatish sohasining rolini oshirishga katta ta’sir ko‘rsatadi.

Xizmatlar sohasida 75,3 mingdan ortiq korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko‘rsatmoqda, ushbu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 14,1 % ga kamaydi. Xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi tarkibida 01.07.2023-yil holatiga eng katta ulushni savdo xizmatlarda (40,0 %), boshqa xizmatlarda (39,3 %), yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda (6,9 %), axborot va aloqa xizmatlarda (6,0 %), eng kam ulushni tashish va saqlashda (5,1%), sog‘liqni saqlash xizmatlarida (2,7 %) tashkil etildi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi, *foizda* *(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)*

2022 - yil yanvar-iyun



2023 - yil yanvar-iyun



Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ishlab chiqarilgan (ko‘rsatilgan) bozor xizmatlarning hajmi 2023-yil yanvar-iyun oylarida

	mlrd. so‘m	O‘sish sur’ati, %	Jamiga nisbatan %
Xizmatlar – jami	**85 751,8**	**117,5**	**100,0**
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	9 173,6	122,4	10,7
moliyaviy xizmatlar	27 808,7	126,4	32,4
transport xizmatlari	8 395,3	118,5	9,8
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	4 100,9	110,3	4,8
yashash va ovqatlanish xizmatlari	3 947,9	111,8	4,6
savdo xizmatlari	18 635,0	112,1	21,7
ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar	2 767,3	114,2	3,2
ta’lim sohasidagi xizmatlar	4 251,6	118,6	5,0
sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	1 775,6	103,4	2,1
ijara xizmatlari	1 133,9	107,1	1,3
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta’mirlash bo‘yicha xizmatlar	370,0	104,3	0,4
shaxsiy xizmatlar	891,3	104,2	1,0
me’morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	1 815,3	90,5	2,1
boshqa xizmatlar	4786,3	111,3	5,7

Xizmatlar tarkibida eng katta ulushni moliyaviy xizmatlar (32,4 %), savdo xizmatlari (21,7%), transport xizmatlari (9,8%) va aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (10,7 %) tashkil etadi. Xizmatlar umumiy hajmida past ulushlarni kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar (0,4 %) hamda shaxsiy xizmatlar (1,0 %) egalladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi, *foizda*
(2023 - yil yanvar–iyun oylari)



Bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi moliyaviy xizmatlari 32,4 % eng yuqori ulushni tashkil etadi. Moliyaviy xizmatlar oddiy taqsimlash mexanizmidan iste'molchiga yo'naltirilgan bozor talablarini shakllantirish jarayonlarida faol ishtirokchiga aylandi. Hozirgi vaqtda, moliyaviy xizmatlar iqtisodiyotda ko'rsatilgan jami xizmatlar hajmining sezilarli qismi hisoblanadi.

Savdo xizmatlari tarkibida ulgurji savdo (avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari) xizmatlari yuqori ulushni tashkil etadi-52,2%.

Tumanlar kesimida savdo xizmatlarning hajmi
(2023- yil yanvar-iyun oylari)

	Jami		
	mlrd. so‘m	2022- yil yanvar-iyunga nisbatan, %	Savdo xizmatlari hajmida tumanlarning ulushi, %
Toshkent shahri	**18 635,0**	**112,1**	**100,0**
tumanlar:			
Bektemir	1 463,0	109,6	7,9
Mirzo Ulug‘bek	1 295,1	114,8	6,9
Mirobod	1848,7	106,1	9,9
Olmazor	2 087,7	111,0	11,2
Sergeli	927,2	113,9	5,0
Uchtepa	1 476,0	114,6	7,9
Chilonzor	2 785,3	106,5	14,9
Shayxontohur	1 597,1	106,4	8,6
Yunusobod	1733,0	116,8	9,3
Yakkasaroy	1 510,4	117,1	8,2
Yashnobod	1 460,5	116,6	7,8
Yangihayot	451,0	112,7	2,4

Tumanlar o‘rtasida savdo xizmatlari bo‘yicha o‘tgan yilning mos davriga nisbatan yuqori o‘sish sur’atlari Olmazor (111,0 %), Yakkasaroy (117,1 %) tumanlarida qayd etildi. Savdo xizmatlari bo‘yicha uncha yuqori bo‘lmagan o‘sish sur’atlari Mirobod (106,1%) va Shayxontohur (106,4 %) tumanlarida qayd etildi.

Savdo xizmatlarning umumiy hajmida tumanlarning ulushi, foizda

(2023- yil yanvar–iyun oylarida)



Tumanlar o‘rtasida savdo xizmatlari bo‘yicha yuqori ulushga ega bo‘lgan Chilonzor (14,9%), Olmazor (11,3%) va Mirobod (9,9 %), tumanlarida qayd etildi.

Savdo xizmatlari bo‘yicha uncha yuqori bo‘lmagan ulushga Yangihayot (2,4 %), Segeli (5,0 %) tumanlarida qayd etildi.

Tumanlar bo‘yicha savdo xizmatlarning hajmi, mlrd.so‘mda

(2023 yil yanvar–iyun oylarida)



Tumanlar o‘rtasida savdo xizmatlari bo‘yicha yuqori hajmga ega bo‘lgan Chilonzor (2 785,3 mlrd.so‘m), Olmazor (2 087,7 mlrd. so‘m), Mirobod (1 848,7 mlrd.so‘m) tumanlarida qayd etildi.

Savdo xizmatlari bo‘yicha uncha yuqori bo‘lmagan hajmga Segeli (927,2 mlrd. so‘m), Yangihayot (451,0 mlrd.so‘m) tumanlarida qayd etildi.

Transport xizmatlarining tarkibi, foizda
(2023- yil yanvar–iyun oylarida)



Xizmatlar tarkibida transport xizmatlari – 9,8 % ulush bilan yetakchilar qatorini egallaydi. Yuklar va yo‘lovchilarni tashish bo‘yicha xizmatlar hajmining oshish omillari yangi bino va inshootlarni qurish va rekonstruksiya qilish, sanoat zonalarini tashkil etish va kengaytirish, savdo tarmoqlarini kengaytirish, turizm faoliyatini rivojlantirish hisoblanadi.

Transport xizmatlari tarkibida avtomobil transportining ulushi 4,8 % bilan ustunlikka ega.

Tumanlar kesimida transport xizmatlarning hajmi,
2023 - yil yanvar-iyun oylarida

	Jami		
	mlrd. so‘m	2022yil yanvar-iyunga nisbatan, %	Transport xizmatlar hajmida tumanlarning ulushi, %
Toshkent shahri	**8 395,3**	**118,5**	**100,0**
tumanlar:			
Bektemir	297,0	140,7	3,5
Mirzo Ulug‘bek	654,2	113,9	7,8
Mirobod	1329,9	115,1	15,8
Olmazor	855,9	114,4	10,2
Sergeli	965,3	135,8	11,5
Uchtepa	388,1	116,3	4,6
Chilonzor	763,2	110,9	9,1
Shayxontohur	760,2	129,8	9,1
Yunusobod	1022,9	112,8	12,2
Yakkasaroy	557,3	113,6	6,6
Yashnobod	583,8	119,0	7,0
Yangihayot	217,3	115,9	2,6

Tumanlar o‘rtasida transport xizmatlari bo‘yicha o‘tgan yilning mos davriga nisbatan yuqori o‘sish sur’atlari Bektemir (140,7%), Sergeli (135,8 %) va Shayxontohur (129,8%) tumanlarida qayd etildi.

Transport xizmatlari bo‘yicha uncha yuqori bo‘lmagan o‘sish sur’atlari, Chilonzor (110,9 %), Yunusobod (112,8%) va Olmazor (114,4 %) tumanlarida qayd etildi.

Transport xizmatlarning umumiy hajmida tumanlarning ulushi, *foizda*
(2023- yil yanvar–iyun oylarida)



Tumanlar kesimida transport xizmatlari bo‘yicha eng yuqori ulush Mirobod (15,8 %), Yunusobod (12,2 %) va Sergeli (11,5 %) tumanlarida qayd etildi.

Transport xizmatlari bo‘yicha uncha yuqori bo‘lmagan ulush Yangihayot (2,6%), Bektemir (3,5 %) va Uchtepa (4,6 %) tumanlarida qayd etildi.

Toshkent shahrida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi va o‘sish sur’ati
(2023- yil yanvar-iyun oylari)



Tumanlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarning hajmi, 2023- yil yanvar-iyun oylarida

	Jami		
	mlrd. so‘m	2022- yil yanvar-iyunga nisbatan, %	Aloqa va axborotlashtirish xizmatlar hajmida tumanlarning ulushi, %
Toshkent shahri	**9173,6**	**122,4**	**100,0**
tumanlar:			
Bektemir	166,9	114,6	1,8
Mirzo Ulug‘bek	782,5	118,1	8,5
Mirobod	1201,2	134,7	13,1
Olmazor	991,6	118,1	10,8
Sergeli	379,3	114,7	4,1
Uchtepa	386,8	114,8	4,2
Chilonzor	673,2	116,5	7,3
Shayxontohur	1117,8	125,2	12,2
Yunusobod	1563,5	123,2	17,1
Yakkasaroy	995,1	143,0	10,9
Yashnobod	893,5	120,0	9,8
Yangihayot	22,2	126,5	0,2

Axborot texnologiyalarining rivojlanishi zamonaviy insonning turmush tarziga sezilarli darajada ta’sir qiladi. Yildan-yilga odamlar internet va mobil telefonlardan foydalangan holda operatsiyalarni amalga oshirish uchun ko‘proq imkoniyatlarga ega bo‘lmoqda. Zamonaviy biznesni rivojlantirishda axborot va xizmatlardan real vaqtda masofaviy erkin foydalanish huquqi muhim o‘rin tutadi.

Bugungi kunda Toshkent shahrida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) davlat boshqaruvi tizimida, iqtisodiyotning tarmoqlarida, ijtimoiy soha va odamlarning kundalik hayotida joriy etishni izchil amalga oshirishga qaratilgan keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda.

2023-yil yanvar–iyun oylarida Toshkent shahri bo‘yicha aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi 9 173,6 mlrd. so‘mga teng bo‘ldi. 2022- yil yanvar–iyun oylariga nisbatan aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining o‘sishi sur’ati 122,4 % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulush (37,8 %) telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, internet, yo‘ldosh aloqa xizmatlari va b.q.) hisssasiga to‘g‘ri keladi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari tarkibi, foizda

(2023- yil yanvar–iyun oylari uchun)



Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) va moliya-kredit muassasalari xizmatlari tez rivojlanayotgan xizmat turlari hisoblanadi. Yangi texnologiyalarga va bozorni erkinlashtirish natijalariga tayanib, bu faoliyat turlari hozirgi vaqtda rivojlanishning yangi bosqichi sifatida paydo bo‘ldi va bugungi kunda jamiyatning texnologik taraqqiyoti va iqtisodiyotning globallashuvida hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish, AKT sohasida innovatsiyalarni joriy etish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida yangi turdagi xizmatlarning paydo bo‘lishi aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmini oshirishga ta’sir ko‘rsatadi.

Tumanlar o‘rtasida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari bo‘yicha o‘tgan yilning mos davriga nisbatan yuqori o‘sish sur’atlari Yakkasaroy (143,0 %.), Mirobod (134,7 %.), Yangihayot (126,5 %), va Shayxontohur (125,2 %) tumanlarida qayd etildi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari bo‘yicha uncha yuqori bo‘lmagan o‘sish sur’atlari Bektemir (114,6 %), Sergeli (114,7 %), Uchtepa (114,8 %) tumanlarida qayd etildi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarning umumiy hajmida tumanlarning ulushi, *foizda*
(2023- yil yanvar-iyun oylari)



Tumanlar o‘rtasida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari bo‘yicha yuqori ulush Yunusobod (17,0 %), Mirobod (13,1), Shayxontohur (12,2 %), Olmazor (10,8 %), Yakkasaroy (10,8 %) tumanlarida qayd etildi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari bo‘yicha uncha yuqori bo‘lmagan ulush Yangihayot (0,2 %), Bektemir (1,8 %) va Sergeli (4,1 %) tumanlarida qayd etildi.

Pul-kredit tizimini isloh qilish dasturida bank tizimini barqarorligini ta’minlash, xalqaro standartlarga muvofiq bank faoliyatini yanada takomillashtirish, qo‘shimcha investitsiyalarni jalb qilish, bank va sug‘urta tashkilotlariga ko‘rsatiladigan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda yangi xizmat turlarini joriy etish, moliyaviy xizmatlar hajmini yanada kengaytirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Toshkent shahrida o‘tgan yilning mos davrlariga nisbatan moliyaviy xizmatlarning o‘sish sur’atlari, *foizda*

(2023- yil yanvar–iyun oylari)



Natijada, 2023-yil yanvar–iyun oylarida ko‘rsatilgan moliyaviy xizmatlar hajmi 27 808,7 mlrd. so‘mga teng bo‘ldi, o‘sish 126,4 % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlarning tarkibi, *foizda*

(2023- yil yanvar–iyun oylari)

Valyuta siyosatini erkinlashtirish, shuningdek, istiqbolli investitsiya loyihalarini kreditlash ko‘lamini kengaytirish, moliyaviy tashkilotlar tomonidan innovatsion xizmatlar ko‘rsatish (kredit berish va depozit hisob raqamlarni ochish bo‘yicha elektron xizmatlar ko‘rsatish) borasida amalga oshirilayotgan islohotlar moliyaviy xizmatlar hajmining oshishiga ta’sir ko‘rsatdi.

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug‘urta va nafaqa ta’minoti bo‘yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar ulushi (85,2 %) ustunlik qilmoqda. Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug‘urta xizmatlarining ulushi 10,0 % ni, yordamchi moliyaviy faoliyat 4,8 % ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlarning hajmi
2023- yil yanvar-iyun oylarida

	Jami		
	mlrd. so‘m	2022- yil yanvar- iyunga nisbatan, %	Moliyaviy xizmatlar hajmida tumanlarning ulushi, %
Toshkent shahri	**27 808,6**	**126,4**	**100,0**
tumanlar:			
Bektemir	327,2	117,2	1,2
Mirzo Ulug‘bek	3 259,4	142,5	11,7
Mirobod	2 585,1	107,6	9,3
Olmazor	1 322,9	108,0	4,8
Sergeli	1 027,5	139,9	3,7
Uchtepa	1 294,8	108,2	4,7
Chilonzor	2 792,8	130,3	10,0
Shayxontohur	3 310,1	137,8	11,9
Yunusobod	5 931,5	138,9	21,3
Yakkasaroy	2 262,5	108,0	8,1
Yashnobod	3 381,4	123,8	12,2
Yangihayot	313,4	132,4	1,1

Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar

2023-yil yanvar–iyun oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarining o‘sish sur’ati 111,8 % ni, hajmi esa 3 947,9 mlrd. so‘mga yetdi.

Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimlik suvi bilan ta’minlash bo‘yicha xizmatlar ulushi 79,1 % bilan ustunlik qiladi. Yashash bo‘yicha xizmatlar ulushi 20,9 % ni tashkil etdi.

Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar hajmini taqqoslash, mlrd.so‘m

(2023- yil yanvar–iyun oylarida)



Yashash va ovqatlanish xizmatlari bo‘yicha eng katta hajm Shayxontohur tumanida 902,5 mlrd. so‘m qayd etildi. Eng kichik hajm esa Yangihayot tumanida 64,0 mlrd. so‘m kuzatildi.

Toshkent shahri bo‘yicha xizmatlarning umumiy hajmida tumanlarning ulushi, foizda

(2023- yil yanvar–iyun oylari uchun)



Ko‘rsatilgan xizmatlar umumiy hajmida eng kichik ulushlarni Yangihayot (1,6 %) Bektemir (3,5 %), Sergeli (5,2 %), Uchtepa (5,5 %), tumanlari egallaydi.

Tumanlar kesimida ishlab chiqarilgan (ko‘rsatilgan) bozor xizmatlarning hajmi, 2023- yil yanvar-iyun oylarida

	Jami			Aholi jon boshiga	
	mlrd. so‘m	2022- yil yanvar-iyunga nisbatan, %	Jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi, %	ming so‘m	2022- yil yanvar-iyunga nisbatan, %
Toshkent shahri	**85 751,8**	**117,5**	**100,0**	**28 795,1**	**113,9**
tumanlar:					
Bektemir	2973,3	113,4	3,5	52 163,1	104,7
Mirzo Ulug‘bek	8 622,3	123,1	10,1	26 521,9	119,8
Mirobod	9 263,2	110,9	10,8	61 672,7	108,5
Olmazor	6 965,4	114,1	8,1	17 523,1	111,3
Sergeli	4 442,0	123,2	5,2	27 151,3	113,2
Uchtepa	4 758,5	111,1	5,5	16 125,0	108,3
Chilonzor	9 237,5	115,9	10,8	33 849,3	113,9
Shayxontohur	9 515,8	120,0	11,1	26 301,4	118,1
Yunusobod	13 757,1	123,2	16,0	37 241,8	120,4
Yakkasaroy	7 413,9	114,5	8,6	57 382,8	110,5
Yashnobod	7 437,7	118,3	8,7	25 462,7	113,8
Yangihayot	1 365,1	118,0	1,6	8 318,9	110,6

Aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlar bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Mirobod tumanida – 61 627,7 ming. so‘mga teng bo‘lib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 108,5 % ni tashkil etdi.

Tumanlar bo‘yicha aholi jon boshiga ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining hajmi va o‘sish sur’ati

(2023- yil yanvar–iyun oylari uchun)



Aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlarning eng past ko‘rsatkichi Yangihayot (8 318,9 ming so‘m), Uchtepa (16 125,0 ming so‘m), Olmazor (17 523,1 ming so‘m), Mirzo Ulug‘bek (26 521,9 ming. so‘m), Shayxontohur (26 301,4 ming. so‘m) va Yashnobod (25 241,8 ming so‘m) tumanlarida kuzatildi.

Tumanlar o‘rtasida yuqori o‘sish sur’atlari Yunusobod (120,4 %), Mirzo Ulug‘bek (119,8 %) va Shayxontohur (118,1 %) tumanlarida kuzatildi.

Tumanlar o‘rtasida past o‘sish sur’atlari Bektemir (104,7 %) va Uchtepa (108,3 %) tumanlarida kuzatildi.

STATISTIK KO‘RSATKICHLARGA IZOHLAR

Xizmat sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar va shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko‘rsatiladigan har xil turdagi xizmatlarning takror ishlab chiqarilishini o‘z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir. Boshqacha qilib aytganda, bu savdo, kasbiy va maishiy xizmatlarni ko‘rsatishga ixtisoslashgan mamlakat iqtisodiyotining tarmog‘idir. Xizmatlar iste’molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o‘zgartiruvchi yoki tovarlar, xizmatlar yoki moliyaviy aktivlar bilan ayirboshlashiga ko‘maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi. Xizmatning o‘ziga xos xususiyati, xizmatni bajarish va uni iste’mol qilish davrining bir xil vaqtga to‘g‘ri kelishi hisoblanadi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha xizmatlar hajmida ko‘rsatilgan xizmatlar uchun amaldagi bozor narxlari bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘i va aksizsiz hisoblangan to‘lovlar hisobga olinadi.

Xizmatlar oldi-sotdi obyekti sifatida chiqqanda va iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lgan (xizmatlarni ishlab chiqaruvchining sarf-xarajatlarini to‘laligicha yoki sezilarli darajada qoplaydigan) narxlarda sotilganda, **bozor uchun ishlab chiqarilgan xizmatlar hisoblanadi.**

“Ishlab chiqarilgan (ko‘rsatilgan) xizmatlar hajmi” statistik ko‘rsatkichi – ma’lum bir vaqt davomida ko‘rsatilgan xizmatlar qiymatini o‘lchovchi, iste’molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslar, norezidentlarni qo‘shgan holda) ko‘rsatilgan xizmatlar qiymatini aks ettiradi.

Ishlab chiqarilgan (ko‘rsatilgan) xizmatlar hajmi bu – xizmatlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan va xizmat ko‘rsatish asosiy faoliyat turi hisoblanadigan barcha xizmatlar ishlab chiqaruvchilari (yuridik va jismoniy shaxslar) tomonidan ko‘rsatilgan bozor xizmatlari qiymatidir.

Iste’molchilar tomonidan xizmatlar uchun to‘lovlar naqd pul, shu jumladan, plastik kartochkalar va pul o‘tkazish, elektron to‘lovlar va elektron pullar orqali amalga oshirilishi mumkin.

Norezidentlarga ko‘rsatilgan xizmatlar (agar to‘lov so‘mda amalga oshirilmagan bo‘lsa), xizmatlarga to‘lovlarni amalga oshirish sanasida O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan so‘mning belgilangan kursi bo‘yicha qayta hisoblangan shartnoma narxlari bo‘yicha aniqlanadi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari aloqa sohasidagi xizmatlarni, shu jumladan telefon, teleks, telegraf, radioeshittirish, elektron pochta, suniy yo‘ldosh, faksimile va boshqalarni ishlatib ovozli ma’lumot, tasvir va boshqa axborot oqimlarini uzatish xizmatlarini qamrab oladi.

Moliyaviy xizmatlar Markaziy bank, tijorat banklari va boshqa moliya-kredit tashkilotlari tomonidan ko‘rsatiladi. Bu guruh xizmatlarga banklarning moliyaviy vositachiligi xizmatlari (moliyaviy lizing, kredit berish), shu jumladan, masofaviy bank xizmatlari (internet-banking, mobil-banking), investitsiya fondlari va boshqa moliyaviy tashkilotlarning moliyaviy vositachiligi, moliya bozorlari (fond va valyuta birjalari) faoliyatining yordamchi moliyaviy vositachilik va boshqa moliyaviy xizmatlar kiradi. Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik yo‘li bilan olingan foizlar daromadi (ular uchun to‘lov miqdorida), shuningdek, moliya muassasasining kredit berish yoki depozitni saqlash bo‘yicha xizmatlari uchun yig‘im bilan hisobga olinadi.

Transport xizmatlari transportning barcha turlarida yuklarni va yo‘lovchilarni tashish faoliyati, shuningdek, transportirovka qilishda yordamchi xizmat turlari, jumladan, logistik xizmatlarni o‘z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa yashash uchun joylar kabi qisqa muddatli turar joy bilan ta’minlash va oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlarni o‘z ichiga oladi.

Savdo xizmatlari ulgurji va chakana xizmatlarni birlashtirib, shuningdek, boshqa shaxs manfaatlari uchun tovarlarni oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalari yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan vositachilik xizmatlari hamda avtomobil va motosikllarni ta’mirlash xizmatlarini o‘z ichiga oladi.

Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlarni ko‘rsatishda ko‘chmas mulk bilan bog‘liq operatsiyalar bo‘yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo‘jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko‘chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari, ushbu faoliyat tashkilotning asosiy faoliyati yoki yo‘qligidan qat’iy nazar aks ettiriladi.

Yuk tashish. 2023-yil yanvar-iyun oylarida barcha transport turlari tomonidan 64,1 mln. tonna yuk tashilgan bo‘lib, bu o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 95,5 foizni tashkil etdi.

Yuk aylanmasi barcha transport turlari tomonidan 1207,6 mln.tn-km. bo‘lib, 97,7 foizni tashkil qildi.

Yuk tashish va yuk aylanmasi transport turlari bo‘yicha quyidagicha ifodalanadi:

Transport turlari bo‘yicha yuk tashish va yuk aylanmasi hajmi

	2023- yil yanvar-iyun	2022- yil yanvar-iyunga nisbatan, foiz hisobida
Tashilgan yuk, mln. tn	**64,1**	**95,5**
shu jumladan:		
avtomobil transportida	**64,1**	**95,5**
Yuk aylanmasi, mln. tn-km	**1 207,6**	**97,7**
shu jumladan:		
avtomobil transportida	**1 207,6**	**97,7**

Yakka tartibdagi tadbirkorlarning avtomobil transportining yuk aylanmasi 2022-yil yanvar–iyunga nisbatan 8,9 foizga oshdi va 143,4 mln. tn-km.ni tashkil qildi.

Yuk aylanmasining umumiy hajmida xususiy yuk tashuvchilarning ulushi 11,8 foizni tashkil etdi (2022- yil yanvar– iyunda 9,3 foiz).

Yo‘lovchi tashish. 2023-yil yanvar-iyun oylarida barcha transport turlari tomonidan 679,2 mln.kishi tashilgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 28,9 foizga ko‘paygan. Yo‘lovchi tashish aylanmasi ushbu davrda 2,5 foizga ko‘payib, 5 598,9 mln. yo‘lovchi-km. ni tashkil qildi.

Transport turlari bo‘yicha yo‘lovchi tashish va yo‘lovchi aylanmasi quyidagicha ifodalanadi

	2023- yil yanvar-iyun	2022- yil yanvar-iyunga nisbatan, foiz hisobida
Transportda tashilgan yo‘lovchilar, mln. kishi	**679,2**	**128,9**
shu jumladan, avtomobil transportida	**598,2**	**103,6**
Yo‘lovchi aylanmasi, mln. yo‘lovchi-km	**6 189,1**	**128,9**
shu jumladan, avtomobil transportida	**5 598,9**	**102,5**

Xususiy yo‘lovchi tashuvchilar avtomobil transportida yo‘lovchi aylanmasi 2022 -yil yanvar-iyunga nisbatan 2,5 foizga oshib, 5 598,9 mln.yo‘lovchi-km.ni tashkil qildi. Yo‘lovchi aylanmasining umumiy hajmida xususiy yo‘lovchi tashuvchilarning ulushi 24,7 foizni tashkil etdi (2022 -yil yanvar-iyunda 6,1 foiz).

STATISTIK KO‘RSATKICHLARGA IZOHLAR

Umumiy foydalanishdagi avtomobil transporti – aholini va iqtisodiyotni barcha tarmoqlarining yo‘lovchilar, bagajlar va yuklar, shu jumladan, pochtalarni avtomobillarda tashishga bo‘lgan ehtiyojlarini tijorat asosida ta’minlovchi transport.

Avtotransport vositalari – yo‘lovchilar, bagajlar, yuklar tashishga hamda maxsus ishlarni bajarishga mo‘ljallangan avtomobillar, shatakchi-avtomobillar, tirkama va yarim tirkamalar.

Tashilgan yuklar (yuk tashish hajmi) – yuk avtomobillarida, shu jumladan avtotirkamalarda, tashilgan yuklar miqdori har bir qatnov uchun yukning tara yoki konteynerlar og‘irligini hisobga olgan holdagi haqiqiy og‘irligi bo‘yicha aniqlanadi (tonnada o‘lchanadi). Tashilgan yuk hajmini avtomobilning texnik tavsifnomasida ko‘rsatilgan yuk ko‘tarish qobiliyati bo‘yicha aniqlash, faqatgina tashilgan yukning haqiqiy og‘irligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar bo‘lmagan hollardagina amalga oshirilishi mumkin. Umumiy foydalanishdagi transportlarning barcha turlari uchun (avtotransportdan tashqari) tashilgan yuklarning hajmi jo‘natish vaqtida ko‘rsatilgan.

Yuk aylanmasi – transportning yuk tashish bo‘yicha ish hajmi. O‘lchov birligi tonna-kilometr hisoblanadi. Transportning yuk aylanmasi tashilayotgan yukning har bir jo‘natmasi og‘irligini uni tashish masofasiga ko‘paytmasining yig‘indisi orqali aniqlanadi.

Tashilgan yo‘lovchilar – ma’lum vaqt davomida avtomobil vositalarida turli qatnov turlari bo‘yicha tashilgan yo‘lovchilar soni (statistik kuzatuv birligi bo‘lib yo‘lovchiqatnovi hisoblanadi).

Yo‘lovchi aylanmasi – transportning yo‘lovchi tashish bo‘yicha ish hajmi. O‘lchov birligi yo‘lovchi-kilometr hisoblanadi. Har bir tashish bo‘yicha yo‘lovchilar sonini tashish masofasiga ko‘paytmasini yig‘indisi orqali aniqlanadi. Qatnov turlari va boshqa belgilar bo‘yicha alohida hisoblanadi.

2023-yilning yanvar–iyun oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 35 337,5 mlrd. so'mni yoki 2022- yilning shu davriga nisbatan 111,7 % ni tashkil qildi.

Yirik korxonalarning chakana savdo tovar aylanmasi 124,4 % ga o'sib, 14 820,3 mlrd. so'mni va umumiy chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 41,9 % ni tashkil qildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi (avto savdo va ovqatlanishni qo'shmagan holda) tarkibi, *foizda*
(2023- yil yanvar–iyun holatiga)



2023-yilning yanvar–iyun oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi davlat va nodavlat shakllari bo'yicha quyidagicha ifodalanadi.

Davlat mulki 1,1 mlrd.so'mni umumiy chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 0,01 % ni tashkil qildi.

Nodavlat mulki 35 336,5 mlrd. so'mni umumiy chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 99,99 % ni tashkil qildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi hajmda katta ulushga ega bo'lgan Chilonzor tumani 18,6%, Yunusobod tumani 11,1%, Shayxontohur tumani 10,5%, Yakkasaroy tumani 9,6 %, Uchtepa tumani 8,9%, Yashnobod tumani 8,5%, Olmazor tumani 7,8%, Mirobod tumani 7,7%, Mirzo Ulug'bek tumani 7,1%, Sergeli 5,1%, ni tashkil etgan bo'lsa, Bektemir 3,7%, Yangihayot tumani 1,4% bilan eng past ko'rsatkichni qayd etdi.

.

.

Tumanlarning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, foizda

2023 -yil yanvar–iyun oylarida



Chakana savdo tovar aylanmasining tumanlar kesimida o'sish sur'ati, *foizda*

2023 -yil yanvar–iyun oylarida



Toshkent shahrida chakana savdo tovar aylanmasi barcha tumanlarda o'sish kuzatilgan, jumladan eng katta o'sish sur'ati Yangihayot tumani 125,8 %, Sergeli tumani 123,2 % va Shayxontohur tumani 120,2% bilan Toshkent shahrida yetakchilik qilmoqda, o'sish sur'ati nisbatan pastroq ko'rsatkichlar: Olmazor tumani 104,5 %, Yunusbod tumani 102,2 %, Uchtepa tumani 101,4 % ni tashkil etgan.

Ovqatlanish tashkilotlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 3 376,5 mlrd. so'mni va o'sish sur'ati 109,0 % ni tashkil etgan. Chakana savdo tovar aylanmasining umumiy hajmida ovqatlanish korxonalarining ulushi 9,5 % ni tashkil etdi.

Umumiy ovqatlanish tashkilotlari savdo aylanmasi umumiy hajmida eng katta ulush Shayxontohur tumani 25,1 %, Yunusobod tumani 13,6 % , Mirzo Ulug'bek tumani 10,7% ni tashkil etgan bo'lsa, Yangihayot tumani 1,6 % ulush bilan eng past ko'rsatkichni qayd etdi.

Tumanlar kesimida umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi ulushi, foizda

2023 -yil yanvar–iyun oylarida



Avto savdo va ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi aholi jon boshiga 11,9 mln. so'mni tashkil etdi. O'rtacha aholi jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori ko'rsatkichlari Yakkasaroy tumani (26,2 mln. so'm), Chilonzor tumani (24,1 mln. so'm), Bektemir tumani (23,2 mln. so'm), Mirobod tumani (18,1 mln. so'm), Uchtepa tumani (10,6 mln. so'm) kuzatildi.

Tumanlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi
(2023-yil yanvar-iyun, avto savdo va umumiy ovqatlanishni qo'shmagan holda)

	Jami		Aholi jon boshiga	
	mlrd. so'm	2022- yil yanvar-iyunga nisbatan, % hisobida	ming so'm	2022- yil yanvar-iyunga nisbatan, % hisobida
Toshkent shahar	**35 337,5**	**111,7**	**11 866,2**	**108,2**
tumanlar:				
Bektemir	1 321,2	112,7	23 179,5	104,0
Mirzo Ulug'bek	2 510,9	113,1	7 723,0	110,0
Mirobod	2 711,3	115,6	18 051,1	113,1
Olmazor	2 773,2	104,5	6 976,6	101,9
Sergeli	1 808,8	123,2	11 056,0	113,2
Uchtepa	3 136,3	101,4	10 627,9	98,9
Chilonzor	6 572,3	111,5	24 083,3	109,5
Shayxontohur	3 711,8	120,2	10 259,4	118,3
Yunusobod	3 920,6	102,2	10 613,4	99,8
Yakkasaroy	3 381,7	120,0	26 174,1	115,8
Yashnobod	3 003,9	112,7	10 283,7	108,3
Yangihayot	485,6	125,8	2 959,0	117,9

2023-yilning yanvar–iyun oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 68 965,1 mlrd. so'mni yoki 2022-yilning shu davriga nisbatan 110,4 % ni tashkil qildi.

Yirik korxonalarning ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi 34,2 % ga teng bo'lib, hajmi 23 569,7 mlrd. so'mni tashkil etganini ko'rish mumkin.

Xususan, ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Olmazor tumani 15,1 %, Yashnobod tumani 13,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, Bektemir tumani 1,2 % va Yangihayot tumani 0,9 % ulush bilan eng past ko'rsatkichni qayd etdi.

Tumanlarning ulgurji savdo (avto savdosiz) tovar aylanmasidagi ulushi, *foizda*
2023-yil yanvar–iyun oylarida



Ulgurji savdo tovar aylanmasi (avto savdosiz) tarkibi, *foizda*
2023- yil yanvar–iyun oylarida



Kichik korxona va mikrofirmalarning ulgurji savdo tovar aylanmasi 3,8 % ga ko'payib, 45 395,4 mlrd. so'mga yetdi va umumiy ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa 65,8 % ni tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasi (avto savdosiz)

(2023- yil yanvar-iyun)

	mlrd. so'm	*Jamiga nisbatan ulushi, % hisobida*
Toshkent shahri	**68965,1**	**100,0**
tumanlar		
Bektemir	796,1	1,2
Mirzo Ulug'bek	5 836,1	8,5
Mirobod	7 552,8	11,0
Olmazor	10 403,0	15,1
Sergeli	3 121,0	4,5
Uchtepa	4 254,5	6,2
Chilonzor	8 669,9	12,6
Shayxontohur	4 058,9	5,9
Yunusobod	5 881,9	8,5
Yakkasaroy	8 173,7	11,9
Yashnobod	9 593,9	13,9
Yangihayot	623,3	0,9

Yirik korxonalarning ulgurji savdo (avto savdosiz) tovar aylanmasi

(2023- yil yanvar-iyun)

	mlrd. so'm	*Jamiga nisbatan ulushi, % hisobida*
Toshkent shahri	**23569,7**	**100,0**
tumanlar		
Bektemir	58,3	7,3
Mirzo Ulug'bek	1 305,3	22,4
Mirobod	1 410,4	18,7
Olmazor	4 482,6	43,1
Sergeli	1 522,6	48,8
Uchtepa	362,7	8,5
Chilonzor	2 611,4	30,1
Shayxontohur	1 047,6	25,8
Yunusobod	1 853,4	31,5
Yakkasaroy	3 382,2	41,4
Yashnobod	5 347,6	55,7
Yangihayot	185,5	29,8

Toshkent shahrida yirik korxonalarning ulgurji savdo tovar aylanmasi 125,6 % ga o'sib, 23 569,7 mlrd. so'mni va umumiy ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi 34,2 % ni tashkil qildi.

Yirik korxonalarning ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmda katta ulushga ega bo'lgan Yashnobod tumani 22,7 %, Olmazor tumani 19,0 %, Yakkasaroy tumani 14,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, Yangihayot 0,8 % va Bektemir tumanlari 0,2 % ulush bilan eng past ko'rsatkichni qayd etdi.

Yirik korxonalarning chakana savdo (avto savdosiz) tovar aylanmasi
(2023- yil yanvar-iyun)

	mlrd. so'm	*Jamiga nisbatan ulushi, % hisobida*
Toshkent shahri	**14820,3**	**100,0**
tumanlar		
Bektemir	231,8	1,6
Mirzo Ulug'bek	1 132,3	7,6
Mirobod	1 463,0	9,9
Olmazor	1 178,9	8,0
Sergeli	1 022,0	6,9
Uchtepa	546,7	3,7
Chilonzor	2 555,0	17,2
Shayxontohur	2 033,2	13,7
Yunusobod	1 778,6	12,0
Yakkasaroy	1 428,3	9,6
Yashnobod	1 200,2	8,1
Yangihayot	250,4	1,7

Yirik korxonalarning chakana savdo tovar aylanmasi hajmda katta ulushga ega bo'lgan Chilonzor tumani 17,2 %, Shayxontohur tumani 13,7 %, Yunusobod tumani 12,0 %, ni tashkil etgan bo'lsa, Bektemir tumani 1,6 %, Yangihayot tumani 1,7 % va ulush bilan eng past ko'rsatkichni qayd etdi.

Yirik korxonalarning umumiy ovqatlanish tovar aylanmasi
(2023- yil yanvar-iyun)

	mlrd. so'm	*Jamiga nisbatan ulushi, % hisobida*
Toshkent shahri	**1 209,4**	**100,0**
tumanlar		
Bektemir	33,3	2,8
Mirzo Ulug'bek	22,7	1,9
Mirobod	41,7	3,4
Olmazor	12,8	1,1
Sergeli	204,6	16,9
Uchtepa	0,4	-
Chilonzor	31,2	2,6
Shayxontohur	606,2	50,1
Yunusobod	162,0	13,4
Yakkasaroy	20,1	1,7
Yashnobod	74,4	6,2
Yangihayot	-	-

Yirik korxonalarning umumiy ovqatlanish tovar aylanmasi hajmda katta ulushga ega bo'lgan Shayxontohur tumani 50,1 %, Sergeli 16,9 %, Yunusobod tumani 10,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, Olmazor tumani 1,5 % eng past ko'rsatkichni qayd etdi.

STATISTIK KO'RSATKICHLARGA IZOHLAR

Chakana savdo – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga sotishni nazarda tutuvchi faoliyat, ya'ni tovarlarni foydalanish sohasidan shaxsiy yoki umumiy iste'mol sohasiga o'tgan vaqtdagi harakatining yakuniy bosqichini ifodalaydi.

Chakana tovar aylanmasi – tovarlarni sotish tarmoqlaridan qat'i nazar, aholiga iste'mol tovarlarini naqd hisob-kitob asosida yoki plastik kartochkalari, kredit kartochkalari, banklarning hisob cheklari orqali (bu ham naqd hisob-kitob asosida sotish kabi hisobga olinadi) sotilgan qiymati.

Umumiy ovqatlanish – yuridik shaxslar tomonidan pazandachilik mahsulotlarini tayyorlashga, sotishga va iste'molini tashkil qilishga ixtisoslashtirilgan faoliyatni amalga oshirish.

Umumovqatlanish aylanmasi – joyida aholiga iste'mol uchun, shuningdek, turli kontingentdagi aholini ovqatlanishini tashkil qilish uchun tashkilot va yakka tadbirkorlarga o'zi ishlab chiqargan kulinariya mahsulotlarini (taom, kulinariya mahsulotlari va yarimfabrikatlar), shuningdek, kulinariya ishlovisiz sotib olingan tovarlarni (unli, qandolatli va non mahsulotlari) sotishdan tushgan tushumni ifodalaydi.

Ulgurji savdo – tijorat maqsadlarida yoki o'zining ishlab chiqarish-xo'jalik ehtiyojlariga foydalanish uchun, xarid qilingan tovarlarni naqd pulsiz hisob-kitoblar shakli bo'yicha sotish.

Iste'mol tovarlari – yakuniy iste'molga (oilaviy yoki shaxsiy) qaratilgan, bevosita inson ehtiyojini qondiradigan tovarlar va xizmatlar.

Texnik-ishlab chiqarishga mo'ljallangan mahsulotlar – ishlab chiqarish iste'moli uchun mo'ljallangan mahsulot: xomashyo, materiallar, yoqilg'i, butlovchi instrumentlar, mashinalar, ehtiyot qismlar, yarimfabrikatlar va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasi – tuzilgan shartnomalar bo'yicha tijorat maqsadlarida (kelajakda qayta ishlash yoki sotish) yoki o'zining ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun naqd pulsiz hisob-kitob shaklida tovarlar sotishdan tushumni ifodalaydi.

O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasi diversifikatsiyalangan va raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratishga, innovatsion texnologiyalar va bozorni boshqarishning yangi usullaridan foydalangan holda milliy resurslardan maksimal darajada foydalanishga yo‘naltirilgan. Mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati xususan, tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o‘z ta’sirini o‘tkazadi.

Iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari va korxonalarining barqaror va uzluksiz ishlashini ta’minlash uchun respublikada zarur resurslar bazasi yaratilgan. Eksport tarkibida sezilarli o‘zgarishlarga import tovarlarning o‘rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish va sanoat ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish natijasida erishildi.

Toshkent shahrining 2023-yil yanvar-iyun oylarida tashqi savdo aylanmasi Respublikaning tashqi savdo aylanmasida eng yuqori ulushga ega bo‘lib, 38,2 % ni tashkil etadi.

Toshkent shahrining 2023- yil yanvar-iyun oylarida eksport hajmi Respublika eksport hajmida eng yuqori ulushga ega bo‘lib, 19,5 % ni tashkil etadi.

Toshkent shahrining 2023- yil yanvar-iyun oylarida import hajmi Respublika import hajmida eng yuqori ulushga ega bo‘lib, 51,6 % ni tashkil etadi.

2023 yil yanvar-iyun oylarida O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha tashqi savdoning shakllanishida Toshkent shahrining qo‘shgan hissasi



Toshkent shahar tashqi savdo aylanmasi 2023-yil yanvar–iyun oylarida 11 157,0 mln. AQSH dollarni, jumladan eksport 2 371,5 mln. AQSH dollarni, impor 8 785,5 mln. AQSH dollarni tashkil etdi.

Tashqi savdo saldosi - 6 414,0 mln.AQSh dollarni, shu jumladan MDH davlatlari bilan -1 866,8 mln. AQSH dollarni va boshqa davlatlar bilan minus - 4 547,2 mln. AQSH dollarni tashkil etdi.

Toshkent shahrining tashqi savdo aylanmasi
(2023- yil yanvar–iyun oylarida)

	mln. AQSh dollari	2022- yilning yanvar-iyunga nisbatan, % hisobida	Jamiga nisbatan ulushi, % hisobida
Tashqi savdo aylanmasi	**11 157,0**	**121,1**	**100,0**
MDH davlatlari	4 045,2	113,9	36,3
boshqa davlatlar	7 111,8	125,6	63,7
Eksport	**2 371,5**	**112,5**	**21,2**
MDH davlatlari	1 089,2	121,9	45,9
boshqa davlatlar	1 282,3	105,6	54,1
Import	**8 785,5**	**123,6**	**78,8**
MDH davlatlari	2 956,0	111,3	33,6
boshqa davlatlar	5 829,5	131,0	66,4
Saldo	**-6 414,0**	**x**	**x**
MDH davlatlari	-1 866,8	x	x
boshqa davlatlar	-4 547,2	x	x

MDH va boshqa davlatlarning Toshkent shahar tashqi savdo aylanmasidagi ulushi, *foizda*
(2023- yil yanvar-iyun)



Toshkent shahrining 2023-yil yanvar-iyun holatiga tashqi savdo aylanmasidagi ulushining 36,3 % MDH davlatlariga to‘g‘ri keladi, qolgan 63,7 % boshqa davlatlar hissasiga to‘g‘ri keladi. Bu ko‘rsatkichlar 2022-yilda mos ravishda 38,5 % MDH davlatlariga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, qolgan 61,5 % boshqa davlatlar hissasiga to‘g‘ri keldi. Toshkent shahrining MDH davlatlari bilan olib borilgan tashqi savdo aylanmasi 2023- yilning yanvar-iyun holatiga 4 045,2 mln. AQSh dollarni tashkil qilgan bo‘lsa, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 113,9 % o‘sish kuzatilgan. MDH davlatlari orasida Rossiya, Qozog‘iston, Turkmaniston, Belarus Respublikasi, Tojikiston va Qirg‘iz Respublikasi davlatlari tashqi savdo aylanmasida asosiy hamkorlar hisoblanib, ularning jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 34,0 %ni tashkil qiladi, boshqa davlatlar orasida Xitoy, Germaniya, Turkiya, Litva, BAA, Afg‘oniston, Hindiston, Fransiya, Korea Respublikasi va AQSH yetakchi hamkor davlatlar hisoblanadi.

Toshkent shahar tashqi savdo aylanmasida nisbatan katta ulushga ega bo‘lgan davlatlar, *foizda*
(2023- yil yanvar–iyun oylarida)



Toshkent shahrining 2023- yil yanvar-iyun holatiga tashqi savdoda eng asosiy hamkor davlatlari Xitoy (21,6 %), Rossiya Federatsiyasi (20,0 %), Qozog‘iston (7,3 %) Germaniya (6,4 %) va Turkiya (6,2%) hisoblanib, ularning jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 61,5 % ni tashkil qiladi.

Dunyodagi mamlakatlar orasida eksportda hamkor davlatlar Rossiya Federatsiyasi, Xitoy, Qozog‘iston, Afg‘oniston, Turkiya, Tojikiston, Birlashgan Arab Amirligi va Hindiston hisoblanib, ularning jami eksportdagi ulushi 73,3 % ni tashkil qiladi, importda esa hamkor davlatlar Xitoy, Rossiya Federatsiyasi, Germaniya, Qozog‘iston, Turkiya, Turkmaniston va Litva davlatlari hisoblanadi va ularning ulushi 69,9 % ni tashkil qiladi.

Toshkent shahar tashqi savdo aylanmasida nisbatan katta ulushga ega bo‘lgan davlatlar hajmi
(2023- yil yanvar–iyun oylarida)

(mln. AQSH dollari)

	Eksport	Import	Tovar aylanmasidagi ulushi, % hisobida
Xitoy	366,0	2 042,1	21,6
Rossiya Federatsiyasi	430,3	1 798,6	20,0
Qozog‘iston	211,1	604,4	7,3
Germaniya	17,6	692,8	6,4
Turkiya	180,2	513,2	6,2
Turkmaniston	53,2	297,0	3,1
Litva Respublikasi	26,5	192,9	2,0
Birlashgan Arab Amirligi	78,8	138,4	1,9
Afg‘oniston	190,0	1,0	1,7
Hindiston	9,5	163,2	1,5
Fransiya	0,7	169,7	1,5
Koreya Respublikasi	9,5	160,6	1,5
AQSH	50,5	113,7	1,5

Toshkent shahrining eksport tarkibida qariyb barcha tovarlar va xizmatlar guruhlari bo‘yicha o‘sishi kuzatilmoqda. Oziq-ovqat mahsulotlari eksporti o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 143,1 %, sanoat tovarlari 102,3 % ga o‘sgan.

Import tarkibining umumiy hajmidan 32,6 % ni mashina va asbob-uskunalar hamda 16,4 % ni sanoat tovarlari tashkil qiladi.

Eksport tarkibi

	Eksportning umumiy hajmidagi ulushi, foiz hisobida		2022 -yil yanvar-iyunga nisbatan, foiz hisobida
	2022- yil yanvar - iyun	2023- yil yanvar - iyun	
Eksport tarkibi	**100,0**	**100,0**	**112,5**
oziq-ovqat mahsulotlari va tirik xayvonlar	4,1	5,3	129,3
ichimliklar va tamaki	2,0	1,9	95,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari	2,0	1,2	60,0
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar	5,6	3,5	62,5
Hayvonlar va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	0,1	-	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar	9,2	7,3	79,3
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	20,4	18,6	91,2
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	5,2	9,5	182,7
Turli xil tayyor buyumlar	3,4	4,1	120,6
Xizmatlar	48,0	47,8	99,6
Boshqa tovarlar	-	0,8	-

Import tarkibi

	Importning umumiy hajmidagi ulushi, foiz hisobida		2022- yil yanvar- iyunga nisbatan, foiz hisobida
	2022- yil yanvar - iyun	2023- yil yanvar - iyun	
Import tarkibi	**100,0**	**100,0**	**123,6**
oziq-ovqat mahsulotlari va tirik xayvonlar	10,6	9,6	90,6
ichimliklar va tamaki	0,8	0,9	112,5
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari	1,9	1,5	78,9
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar	4,6	7,9	171,7
Xayvonlar va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	1,2	1,3	108,3
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar	17,7	14,7	83,1
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	19,3	16,4	85,0
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	31,8	32,6	102,5
Turli xil tayyor buyumlar	5,6	4,8	85,7
Xizmatlar	6,5	6,1	93,8
Boshqa tovarlar	-	4,2	-

Tovar va xizmatlarning eksport tarkibi, jamiga nisbatan, foizda
(2023-yil *yanvar-iyun oylarida*)



Tovar va xizmatlarning import tarkibi, jamiga nisbatan, *foizda*
(diagrammaning tashqi aylanasi 2023- yil yanvar-iyun, ichki aylanasi 2022 -yil yanvar-iyun)



Hududlar kesimida tovar va xizmatlarning eksport tarkibi,
(ming. AQSh doll), **2023- yil yanvar-iyun oylarida**

	oziq-ovqat mahsulotlari va tirik xayvonlar	ichimliklar va tamaki	nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg‘idan tashqari	mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar	hayvonlar va o‘simlik lar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar
Toshkent shahri	**123 121,1**	**44 521,2**	**24 037,6**	**84 395,7**	**448,9**
Bektemir	2 101,3	694,6	3 619,5	-	12,9
Uchtepa	10 279,0	-	945,4	-	0,5
Yunusobod	28 120,9	21 967,8	824,4	46 528,5	-
Mirzo Ulug‘bek	6 726,8	839,4	745,5	44,5	18,8
Mirobod	6 715,3	1 300,7	1 046,9	980,9	43,5
Shayxontohur	1 071,6	1 176,7	995,6	395,6	8,1
Olmazor	15 648,2	2 937,4	1 825,3	190,7	45,6
Sergeli	1 464,6	7,1	347,1	13,8	-
Yakkasaroy	6 827,3	4 956,7	389,0	1 120,4	-
Yashnobod	16 483,4	10 087,8	15 266,7	62,2	-
Yangihayot	4 136,3	44,1	572,0	-	-
Chilonzor	25 647,7	1 203,6	1 079,6	35 059,1	332,4
Tumandan tashqari	-	-	-	-	-

	Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar	Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	Mashinalar va transport asbob-uskunalari	Turli xil tayyor buyumlar	Xizmatlar	Boshqa tovarlar
Toshkent shahri	**169 942,8**	**431 192,2**	**208 707,3**	**91 793,8**	**1 132 668,7**	**18 590,7**
Bektemir	4 077,7	9 186,2	17 342,5	4 524,9	253,2	274,4
Uchtepa	302,8	4 301,2	181,1	14 520,3	166,5	77,6
Yunusobod	5 051,3	10 858,5	16 629,7	7 660,1	99670,8	1306,8
Mirzo Ulug‘bek	1 427,2	32 869,5	7 222,3	5 306,8	12065,7	2712,1
Mirobod	4 678,1	5 007,0	12 444,4	2 235,2	434604,3	2878,2
Shayxontohur	123 662,7	32 351,5	83 974,1	4 335,8	12822,3	457,4
Olmazor	2 335,0	64 326,3	2 482,7	9 651,2	7609,7	385,0
Sergeli	2 325,1	106 980,1	10 330,2	3 790,7	69471,2	4827,9
Yakkasaroy	8 694,8	4 836,7	18 558,5	27 142,7	319890,4	2186,4
Yashnobod	7 649,1	45 883,9	47 210,1	3 969,7	79745,2	3546,5
Yangihayot	2 828,8	58 330,3	1 401,5	6 097,1	-	152,4
Chilonzor	10 988,0	65 447,1	8 272,7	7 047,8	33941,5	60,4
Tumandan tashqari	-	-	-	36,5	62681,2	-

Hududlar kesimida tovar va xizmatlarning import tarkibi,
(ming. AQSh doll) 2023- yil yanvar-iyun oylarida

	oziq-ovqat mahsulotlari va tirik xayvonlar	ichimliklar va tamaki	nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg‘idan tashqari	mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar	hayvonlar va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar
Toshkent shahri	**802 282,1**	**77 686,5**	**120 166,5**	**687 409,6**	**115 067,7**
Bektemir	40 176,0	-	8 435,1	2 802,2	102,2
Uchtepa	30 402,2	973,2	8 180,0	4 859,5	2 948,7
Yunusobod	62 611,0	22 801,1	26 473,7	109 280,7	11 827,4
Mirzo Ulug‘bek	55 972,0	21 529,6	6 590,2	6 938,6	3 034,3
Mirobod	75 112,9	13 803,1	5 434,1	22 856,0	31 947,4
Shayxontohur	42 818,5	239,9	23 391,7	12 940,3	6 239,2
Olmazor	102 600,7	541,3	13 497,9	10 129,5	16 020,5
Sergeli	33 094,8	3 023,9	8 513,6	8 327,8	1 005,3
Yakkasaroy	110 091,2	6 737,0	3 233,3	51 986,7	11 777,9
Yashnobod	111 105,7	3 129,9	8 918,7	11 483,3	5 968,3
Yangihayot	7 679,9	113,0	4 466,1	3 703,9	5 773,4
Chilonzor	170 793,3	4 794,5	11 466,4	444 903,5	18 525,4
Tumandan tashqari	-	-	0,9	-	-

	Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar	Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	Mashinalar va transport asbob-uskunalari	Turli xil tayyor buyumlar	Xizmatlar	Boshqa tovarlar
Toshkent shahri	**1 209 853,0**	**1 407 927,9**	**2 765 251,3**	**415 366,3**	**538 142,3**	**366 644,7**
Bektemir	84 232,3	31 373,8	99 374,9	6 681,0	49,2	6 492,6
Uchtepa	40 108,8	88 113,2	92 962,4	15 825,1	-	12 579,5
Yunusobod	102 035,2	110 286,8	356 364,9	64 761,4	107 984,2	36 168,5
Mirzo Ulug‘bek	102 543,4	79 186,3	307 446,4	37 094,1	3 276,5	18 439,0
Mirobod	161 452,5	185 459,2	769 038,1	48 756,9	234 034,6	25 914,2
Shayxontohur	62 121,8	117 230,0	158 539,5	32 496,9	23 192,1	31 189,1
Olmazor	250 830,0	115 394,6	86 957,5	29 768,4	97 709,7	33 534,7
Sergeli	99 465,3	133 775,4	370 642,8	15 875,4	9 702,2	56 010,5
Yakkasaroy	128 533,2	94 674,3	199 156,4	48 922,1	2 438,2	46 266,9
Yashnobod	107 292,1	211 418,8	191 299,6	43 834,1	8 434,8	29 972,6
Yangihayot	18 468,8	124 122,7	41 897,7	5 546,1	897,7	2 769,5
Chilonzor	136 953,9	148 236,0	190 252,7	71 421,9	27 292,0	73 799,2
Tumandan tashqari	47,9	30,5	693,2	1 063,7	23 180,4	1,1

STATISTIK KO‘RSATKICHLARGA IZOHLAR

Tovar – har qanday ko‘chma mulk, shu jumldan valyuta va valyuta qimmatliklari, elektr, issiqlik va boshqa energiya turlari, transport vositalari (yo‘lovchilar va tovarlar tashish uchun ishlatiladigan transport vositalari, shu jumladan konteynerlar va boshqa transport uskunalari bundan mustasno), intellektual mulk obyektlari.

Tovarlar eksporti – agar qonunchilikda boshqa tartib ko‘zda tutilmagan bo‘lsa, tovarlarni O‘zbekiston Respublikasi bojxona chegarasidan qaytarib olib kirish majburiyatisiz olib chiqish.

Tashqi savdo aylanmasi – mamlakatning muayyan davrdagi eksport va import qiymatlari summasi.

Tovarlar kelib chiqqan mamlakat – tovar to‘liq ishlab chiqarilgan yoki yetarli darajada qayta ishlov berilgan mamlakat (tovar yetarli darajada qayta ishlov berilgan mamlakat “Bojxona tarifi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 26- moddasiga asosan aniqlanadi).

Tovarlarning belgilangan manzili – yuklab jo‘natish paytida tovar yetkazib berilishi belgilangan mamlakat sifatida ma’lum bo‘lgan mamlakat.

Tovarlarning statistik qiymati – shartnoma valyutasidan qat’i nazar yagona bazisga keltirilgan shartnoma bo‘yicha tovarlar qiymati.

Xizmatlar (ishlar) eksporti — O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari tomonidan norezidentlarga, iqtisodiy geografik joylashuvidan qat’i nazar, ko‘rsatilgan xizmatlar (bajarilgan ishlar).

Xizmatlar (ishlar) importi — norezidentlar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi rezidentlariga, iqtisodiy geografik joylashuvidan qat’i nazar, ko‘rsatilgan xizmatlar (bajarilgan ishlar).

2023-yilning yanvar–iyun oylarida 8 210 ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati 106,1 % ni tashkil qildi.

Eng ko‘p kichik korxona va mikrofirmalar savdo sohasida (jamiga nisbatan 39,5 %), sanoat tarmog‘ida (9,3 %), qurilish tarmog‘ida (7,3 %), yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar tarmog‘ida (7,3 %), axborot va aloqada (6,7 %), tashish va saqlash (5,1 %), sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmalar (1,9 %), qishloq, o‘rmon, baliq xo‘jaligi (0,8 %) va boshqa tarmoqlar (22,1 %) tashkil etgan.

2023- yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi, *foizda*



2023- yilning yanvar–iyun oylarida kichik tadbirkorlik sub’ektlari tomonidan:

– sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 18 837,7 mlrd.so‘mni (jami sanoat ishlab chiqarishining indeksi 35,1 %) ni tashkil qiladi;

– investitsiyalar hajmi 11 611,8 mlrd. so‘mlik (umumiy investitsiyalar hajmidagi ulushi 40,8 %) o‘zlashtirildi va 2022-yilning yanvar–iyunga nisbatan o‘sish sur’ati 93,5 % ni tashkil qildi;

– qurilish ishlari hajmi 12 524,4 mlrd. so‘mlik (qurilish ishlari umumiy hajmidagi ulushi 77,0 %) va 2022-yilning yanvar–iyunga nisbatan o‘sish sur’ati 116,2 % ni tashkil qildi;

– xizmatlar hajmi 31 729,0 mlrd. so‘mlik ko‘rsatilib (jami xizmatlar hajmidagi ulushi 37,0 %), 2022-yilning yanvar– iyunga nisbatan o‘sish sur’ati 103,9 % ni tashkil qildi;

– avtomobil transportida 26 203,9 ming tonna yuk tashilib (jami avtomobil transporti yuk tashishdagi ulushi 40,9 %), 2022 yilning yanvar – iyunga nisbatan o‘sish sur’ati 108,1 % tashkil qildi;

– avtomobil transportida 479 388,6 ming yo‘lovchi tashilib (umumiy yo‘lovchi tashishdagi ulushi 80,1%), 2022-yilning yanvar–iyunga nisbatan o‘sish sur’ati 105,4 % ni tashkil qildi;

– savdo hajmi 20 517,2 mlrd. so‘mlik chakana tovar aylanmasi shakllanib (umumiy chakana tovar aylanmasi hajmidagi ulushi 58,1 %), 2022-yilning yanvar–iyunga nisbatan o‘sish sur’ati 117,6 % ni tashkil qildi;

– tovarlar eksport hajmi 587,6 mln AQSh dollarni (umumiy eksport hajmidagi ulushi 24,8 %), 2022-yilning yanvar– iyunga nisbatan o‘sish sur’ati 154,0 % ni tashkil qildi;

Kichik tadbirkorlikning asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlardagi ulushi
(umumiy hajmiga nisbatan mlrd.so‘mda)

Tumanlar bo‘yicha eng yuqori sanoat mahsulotlarni ishlab chiqarish hajmi Yakkasaroy (1 736,1 mlrd.so‘m), Olmazor (2 615,7 mlrd.so‘m), Yashnobod (2 069,7 mlrd. so‘m), Chilonzor (1 943,5 mlrd. so‘m), Sergeli (2 149,2 mlrd.so‘m), Bektemir (1 658,9 mlrd. so‘m), Uchtepa (1414,1 mlrd. so‘m) tumanlar hissasiga to‘g‘ri keladi.

Yunusobod (1264,3 mlrd. so‘m), Mirzo Ulug‘bek (1277,5 mlrd. so‘m), Mirobod (978,6 mlrd. so‘m), Shayxontohur (928,2 mlrd. so‘m) va Yangihayot (802,0 mlrd.so‘m) tumanlarda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo‘lib qolmoqda.

2023 -yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va ulushi



2023- yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va o‘sish sur’ati





Chakana tovar aylanmasi bo‘yicha eng yuqori hajm Chilonzor (4017,4 mlrd.so‘m), Uchtepa (2589,6 mlrd. so‘m), Yunusobod (2142,0 mlrd.so‘m), Shayxontohur (1678,7 mlrd. so‘m), Yakkasaroy (1953,4 mlrd.so‘m), Olmazor (1594,3 mlrd. so‘m) va Yashnobod (1803,7 mlrd. so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi.

Shuningdek, tumanlar bo‘yicha eng past chakana tovar aylanmasi Mirobod (1248,3 mlrd. so‘m), Mirzo Ulug‘bek (1378,5 mlrd. so‘m), Bektemir (1089,5 mlrd. so‘m), Sergeli (786,8 mlrd. so‘m) va Yangihayot (235,2 mlrd. so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi.

2023- yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o‘sish sur’ati



Qurilish sohasi bo‘yicha eng yuqori hajmga ega bo‘lgan Mirzo Ulug‘bek (1584,7 mlrd. so‘m), Yashnobod (1276,0 mlrd. so‘m), Yunusobod (1634,0 mlrd.so‘m), Mirobod (1511,8 mlrd. so‘m) va Yakkasaroy (1375,6 mlrd. so‘m) tumanlariga to‘g‘ri keladi. Olmazor tumani (921,9 mlrd. so‘m), Chilonzor tumani (1211,0 mlrd.so‘m), Shayxontohur tumani (947,8 mlrd.so‘m), Sergeli tumani (601,3 mlrd. so‘m), Uchtepa tumani (553,6 mlrd.so‘m), Bektemir tumani (335,2 mlrd.so‘m) va Yangihayot tumani (571,4 mlrd.so‘m) qurilish sohasida past hajmga ega.

2023-yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da investitsiya sohasi hajmi va ulushi

Investitsiya sohasi bo‘yicha eng yuqori hajmlar Yakkasaroy (1479,7 mlrd. so‘m), Olmazor (1507,9 mlrd. so‘m), Mirzo Ulug‘bek (944,0 mlrd. so‘m), Yashnabod (1087,5 mlrd.so‘m) Yunusobod (1485,0 mlrd.so‘m) va Mirobod (778,6 mlrd. so‘m) tumanlariga to‘g‘ri keladi.

Chilonzor (1207,1 mlrd. so‘m), Uchtepa (863,2 mlrd. so‘m) Sergeli (694,9 mlrd. so‘m), Shayxontohur (804,9 mlrd. so‘m), Bektemir (309,4 mlrd. so‘m), Yangihayot (449,5 mlrd. so‘m) tumanlarida investitsiya hajmi past bo‘lib qolmoqda.

2023- yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o‘sish sur’ati



Xizmatlar sohasida eng yuqori hajmlar Mirobod (3437,3 mlrd.so‘m), Mirzo Ulug‘bek (4061,5 mlrd. so‘m), Yunusobod (3498,2 mlrd.so‘m), Chilonzor (3448,2 mlrd. so‘m), Yakkasaroy (2597,2 mlrd.so‘m), Shayxontohur (2564,5 mlrd. so‘m), Yashnobod (2875,7 mlrd. so‘m) va Olmazor (2747,9 mlrd. so‘m) tumanlariga to‘g‘ri keladi.

Eng past xizmat hajmiga ega bo‘lgan Uchtepa (2254,9 mlrd.so‘m), Sergeli (1559,2 mlrd. so‘m), Bektemir (2099,1 mlrd. so‘m) va Yangihayot (585,4 mlrd. so‘m) tumanlari hisoblanadi.

2023- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning hududlar bo‘yicha iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ulushi, *foizda*

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Chakana savdo
Toshkent shahri	**35,1**	**77,0**	**37,0**	**58,1**
tumanlar:				
Bektemir	41,5	71,9	70,6	82,5
Mirzo Ulug‘bek	42,4	79,6	47,1	54,9
Mirobod	29,1	70,6	37,1	46,0
Olmazor	64,7	71,7	39,5	57,5
Sergeli	30,4	87,0	35,1	43,5
Uchtepa	47,7	80,1	47,4	82,6
Chilonzor	51,2	73,8	37,3	61,1
Shayxontohur	31,5	71,8	26,9	45,2
Yunusobod	57,1	76,1	25,4	54,6
Yakkasaroy	55,1	76,7	35,0	57,8
Yashnobod	15,1	93,5	38,7	60,0
Yangihayot	23,5	77,6	42,9	48,4

Tumanlar bo‘yicha sanoat mahsulotlarni ishlab chiqarish bo‘yicha eng yuqori ulush Olmazor (64,7%), Yunusobod (57,1%), Yakkasaroy (55,1%), Bektemir (41,5%), Uchtepa (47,7%), Shayxontohur (31,5%), Chilonzor 51,2%), Mirzo Ulug‘bek (42,4%), Sergeli (30,4%), Mirobod (29,1%), Yangihayot (23,5%),va Yashnobod (15,1%) tumanlariga to‘g‘ri keladi.

Qurilish bo‘yicha eng yuqori ulush Yashnobod (93,5%), Olmazor (71,7%), Sergeli (87,0%), Mirzo Ulug‘bek 79,6%), Uchtepa (80,1%) Yakkasaroy (76,7%), Yunusobod (76,1%), Bektemir (71,9%), Mirobod (70,6%), Shayxontohur (71,8%), Yangihayot (77,6%), va Chilonzor (73,8%), tumanlariga to‘g‘ri keladi.

Xizmatlar sohasida eng yuqori ulush Yangihayot (42,9%) Yakkasaroy (35,0%) Bektemir (70,6%), Mirzo Ulug‘bek (47,1%), Mirobod (37,1%), Olmazor (39,5%), Yashnobod (38,7%), Sergeli (35,1%), Uchtepa (47,4%), Chilonzor (37,3%), Shayxontohur (26,9%) va Yunusobod (25,4%) tumanlariga to‘g‘ri keladi.

Chakana savdo aylanmasida eng yuqori ulush Bektemir (82,5%), Uchtepa (82,6%), Chilonzor (61,1%), Yangihayot (48,4%), Yashnobod (60,0%), Shayxontohur (45,2%), Olmazor (57,5%), Yakkasaroy (57,8%), Sergeli (43,5%), Yunusobod (54,6%), Mirobod (46,0%) va Mirzo Ulug ‘bek (54,9%) tumanlariga to‘g‘ri keladi.

2023-yilning yanvar–iyun oylarida kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 48,5% ni tashkil qildi (2022-yilning yanvar–iyun 48,2 %), YAHM tarkibi o‘tgan yilga nisbatan 0,3 foizga oshgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha 2023-yil yanvar– iyun oylari yakunlariga ko‘ra, mikrofirma va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuvlar o‘tkazildi. Unda 4476 dan ortiq respondentlar ishtirok etdi.

Kuzatuv ma’lumotlari tahlili, sanoat sohasida respondentlarning 8,7 % qoniqarsiz deb hisoblashini, mos ravishda sanoat sohasida 34,3 % qulay va 57,0 % esa qoniqarli, qurilish sohasida 33,1 % qulay va 52,0 % esa qoniqarli, savdo sohasida 36,5 % qulay va 54,8 % qoniqarli, xizmatlar sohasida 37,9 % qulay va 53,0 % qoniqarli ni tashkil qilganini ko‘rsatdi.

Joriy iqtisodiy vaziyatga pessimistik ruhda yondashganlar xizmatlarda 9,1%, qurilishda 14,9 %, savdoda 8,6 % va sanoatda 8,7 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikda iqtisodiy vaziyatni tarmoqlar kesimida baholash 2023- yil yanvar-iyun oylarida, *foizda*



Tahlil natijalaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yaxshilash uchun ko‘rilayotgan chora-tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiy iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.

STATISTIK KO‘RSATKICHLARGA IZOHLAR

Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o‘zi tavakkal qilib va o‘z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari (tadbirkorlik subyektlari) belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

Yuridik shaxs – o‘z mulkida, xo‘jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo‘lgan hamda o‘z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o‘z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da’vogar va javobgar bo‘la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

Yuridik shaxslar mustaqil balans yoki smetaga ega bo‘lishlari kerak.

Tadbirkorlik subyektlari o‘z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, o‘z huquqlari va manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida, notijorat tashkilotlar bo‘lgan uyushmalarga (ittifoqlarga) va boshqa birlashmalarga birlashishi mumkin.

Chakana savdo bu – oxirgi foydalanuvchilarga tovarlar va xizmatlar sotish bilan bog‘liq iqtisodiy faoliyat**.**

Ulgurji savdo bu – katta miqdordagi tovarlarni sotishni o‘z ichiga olgan iqtisodiy faoliyat.

Kichik va o‘rta biznes - mustaqil mulk egaligiga, xo‘jalik faoliyatini mustaqil tashkil etishga asoslangan va o‘z tarmog‘ida hukmron mavqe tutmaydigan biznes. Turli mamlakatlarda kichik va o‘rta biznes sub’yektlari maqomini belgilab beruvchi mezonlar sifatida korxonada band bo‘lgan ishlovchilar soni, korxonaning tovar aylanmasi, aktivlar, kapitallar, foyda miqdori va boshqa ko‘rsatkichlardan foydalaniladi. O‘zbekistonda kichik va o‘rta biznes sub’yektlarini aniqlashda korxonada ishlovchilar soni mezon qilib olingan.

Foyda. Hisobot ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilning yanvar-may oylari uchun korxona va tashkilotlar tomonidan 4 853,3 mlrd. so'm miqdorda yakuniy moliyaviy natija olindi. 2022-yilning shu davriga nisbatan solishtirganimizda, foyda hajmi 896, 5 mlrd.so'mga kamaygan.

2023-yilning yanvar-may oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yirik tijorat tashkilotlarining yakuniy moliyaviy natijalari

	Foyda, zarar (-), mlrd. so'm	2022- yilning yanvar-mayga nisbatan, % da
Jami	**4 853,3**	**84,4**
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	267,5	53,9
Ishlab chiqaradigan sanoat	1 883,0	104,7
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	-3931,0	-
Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish	-38,8	-
Qurilish	12,4	4 m.
Savdo	1 614,4	197,3
Tashish va saqlash	2 186,3	148,4
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	88,4	3,0 m.
Axborot va aloqa	1 287,9	103,9
Moliya va sug'urta faoliyati	208,4	113,2
Ko'chmas mulk bilan operatsiyalar	165,7	3,7 m.
Professional, ilmiy va texnik faoliyat	332,1	21,0
Boshqarish bo'yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar ko'rsatish	261,7	142,1
Davlat boshqaruvi va mudofaa; majburiy ijtimoiy ta'minot	138,7	59,6
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	43,1	-
Ta'lim	372,3	209,6
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	-75,8	-
Boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatish	37,0	-

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tahliliy ma'lumotlar shuni ko'rsatmoqdaki, yirik tashkilotlarda ko'rilgan foydaning asosiy qismini ishlab chiqaradigan sanoat yo'nalishidagi tashkilotlar tashkil etmoqda.

Toshkent shahrida yirik tijorat tashkilotlarining 2023-yil yanvar-may oylarida hududlar kesimida yakuniy moliyaviy natijalari

	Foyda, zarar (-), mlrd. so‘m	2022- yilning yanvar-mayga nisbatan, % da
Toshkent sh.	**4 853,3**	**84,4**
tumanlar:		
Bektemir	378,3	86,8
Mirzo Ulug‘bek	332,0	175
Mirobod	2 037,8	101,6
Olmazor	448,9	133,3
Sergeli	596,9	87,7
Uchtepa	57,5	79,4
Chilonzor	-2259,0	-
Shayxontohur	690,8	149,0
Yunusobod	-878,7	-
Yakkasaroy	2 635,6	100,2
Yashnobod	706,6	-
Yangihayot	106,6	157,7

Toshkent shahrining yirik tijorat tashkilotlari bo‘yicha – 4 853,3 mlrd. so‘m, tumanlar kesimida foydaning asosiy qismi Yakkasaroy tumaniga – 2 635,6 mlrd. so‘m (jami foydaning 54,3 %), Mirobod tumaniga–2037,8 mlrd. so‘m va Yashnobod tumaniga – 706,6 mlrd. so‘m to‘g‘ri keladi.

2023- yilning yanvar-mayda iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha zarar ko‘rgan yirik tijorat korxona va tashkilotlarning moliyaviy natijalari

	Korxonalar soni	Zarar summasi	
		mln. so‘m	jamiga nisbatan, % da
Jami	**365**	**7 257 323,1**	**100,0**
Ishlab chiqaradigan sanoat	32	454 076	6,3
Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	4	256 397,5	3,5
Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash	5	4 066 830,7	56,0
Suv bilan ta’minlash; kanalizasiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizasiya qilish	4	38 890,2	0,5
Qurilish	21	215 058,5	3,0
Savdo	110	550 300,6	7,6
Tashish va saqlash	17	140 394,6	1,9
Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	9	34 339,4	0,5
Axborot va aloqa	34	435 664,1	6,0
Moliyaviy va sug‘urta faoliyati	3	13 923,7	0,2
Ko‘chmas mulk bilan operatsiyalar	22	81 470,1	1,1
Professional, ilmiy va texnik faoliyat	39	782 053,1	10,8
Boshqarish bo‘yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar ko‘rsatish	16	6 222,7	0,1
Davlat boshqaruvi va mudofaa, majburiy ijtimoiy ta’minot	5	7 178,0	0,1
Ta’lim	18	62 626,3	0,9
Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	8	17 100,4	0,2
San’at, ko‘ngil ochish va dam olish	15	83 840,3	1,2
Boshqa turdagi xizmatlar ko‘rsatish	3	109 56,9	0,1

2023 - yil yanvar-may oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha zarar ko‘rgan yirik tijorat korxona va tashkilotlarning moliyaviy natijalari
(jamiga nisbatan foiz hisobida)



Zararlarning asosiy qismi professional, ilmiy va texnik faoliyat -782,0 mlrd. so‘m (jami zararning 10,8 %), elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash – 4066,8 mlrd. so‘m (jami zararning 56,0%), savdo - 550,3 mlrd. so‘m (jami zararning 7,6 %) tashish va saqlash – 140,4 mlrd. so‘m (jami zararning 1,9 %), ishlab chiqaradigan sanoat – 454,1 mlrd. so‘m (jami zararning 6,3 %) faoliyat turlarini tashkil etadi.

2023-yilning yanvar-may oylarida hududlar kesimida zarar ko‘rgan yirik tijorat korxona va tashkilotlarning moliyaviy natijalari

	Korxonalar soni	Zarar ko‘rgan korxonalarning ulushi jamiga nisbatan, % da	Zarar summasi, mln. so‘m
Toshkent shahri	**365**	**100,0**	**7 257 323,1**
tumanlar:			
Bektemir	4	1,7	123 666,9
Mirzo Ulug‘bek	38	2,1	155 411,5
Mirobod	42	3,8	276 952,4
Olmazor	25	0,9	65 007,2
Sergeli	17	1,3	91 574,5
Uchtepa	12	0,6	41 016,4
Chilonzor	45	42,7	3 100 703,9
Shayxontohur	41	6,7	485 119,7
Yunusobod	62	26,1	1 899 628,2
Yakkasaroy	36	10,6	770 224,4
Yashnobod	36	2,7	192 535,2
Yangihayot	7	0,8	55 482,9

Toshkent shahrida yirik tijorat korxonalarida 2023-yil 1-iyun holatiga iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha muddati o‘tgan debitor qarzdorlikning tarkibi

	Jami, mln. so‘m	shundan:			Muddati o‘tgan qarzdor-likning ulushi, % da
		xaridor va buyurtma-chilar	yetkazib beruvchilarga va pudratchilarga berilgan avanslar	ichki idora viy	
Jami	**3164469,7**	**2634775,8**	**351828,3**	**2524,3**	**100,0**
Axborot va aloqa	3209,0	5,5	3203,4	-	0,1
Ishlab chiqaradigan sanoat	199585,9	149705,1	7120,3	-	6,3
Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash	237664,2	237651,0	13,3	-	7,5
Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish	231076,7	231076,7	-	-	7,3
Qurilish	21528,5	18573,4	692,0	2135,4	0,7
Savdo	440520,4	64128,7	255932,7	-	13,9
Tashish va saqlash	16693,4	16667,1	-	-	0,5
Ko‘chmas mulk bilan operatsiyalar	3655,4	2944,3	322,3	388,9	0,1
Professional, ilmiy va texnik faoliyat	1838836,4	1786398,0	50684	-	58,1
Boshqarish bo‘yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar ko‘rsatish	2709,8	2709,5	-	-	0,1
Moliyaviy va sug‘urta faoliyati	17193,0	6657,1	322,7	-	0,5
Boshqa turdagi xizmatlar ko‘rsatish	151797,0	118259,4	33537,6	-	4,8

Iqtisodiyot tarmoqlari, tumanlarda va idoralarda muddati o‘tgan qarzdorlikni tugatish bo‘yicha yetarlicha tizimli ishlar tashkillashtirilmaganligi natijasida, muddati o‘tgan debitor qarzdorlikning yuqori sur’atda o‘sishi saqlanib qolmoqda.

2023-yil 1-iyun holatiga debitor qarzdorlikning umumiy hajmi 150 321,1 mlrd. so‘m, undan muddati o‘tgan – 3 164,5 mlrd. so‘m yoki jami debitor qarzdorlikning 2,1 % ni tashkil etdi.

Toshkent shahrida yirik tijorat korxonalarida 2023 - yil 1 - iyun holatiga iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha muddati o‘tgan kreditor qarzdorlikning tarkibi

	Jami, mln. so‘m	shundan:				Muddati o‘tgan qarzdor-likning ulushi, % da
		yetkazib beruvchi lar va pudrat chilarga	budjetga to‘lov-lar	davlat maqsadli fond-lariga to‘lovlar	ichki idoraviy	
Jami	**6771536,3**	**5135213,3**	**709902,1**	**42501**	**20797,4**	**100,0**
Ishlab chiqaradigan sanoat	23322	14367,7	-	-	181,4	0,3
Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	5956924,2	4718966,1	704951,6	42441,9	-	88,0
Savdo	440063,7	72841,7	-	-	19914,4	6,5
Professional, ilmiy va texnik faoliyat	91911,7	87664,1	12,7	0,2	-	1,4
Qurilish	4288,2	3556,5	-	-	626,3	0,1
Elektr,gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash	246030,1	236950,8	-	-	-	3,6
Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	720,2	720,2	-	-	-	0,01
Tashish va saqlash	36,0	36,0	-	-	-	0,001
Axborot va aloqa	0,3	0,3	-	-	-	
Ko‘chmas mulk bilan opyerasiyalar	5047,5	-	4913,3	58,9	75,3	0,1
Boshqarish bo‘yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar ko‘rsatish	3192,4	109,9	24,5	-	-	0,05

2023 -yil 1-iyun holatiga kreditor qarzdorlikning umumiy hajmi– 185 279,2 mlrd. so‘m, undan muddati o‘tgan – 6 771,5 mlrd. so‘m yoki jami kreditor qarzdorlikning 3,7 % ni tashkil etdi.

Toshkent shahrida yirik tijorat korxonalarida 2023 - yil 1 – iyun holatiga tumanlar bo‘yicha muddati o‘tgan debitor va kreditor qarzdorlikning tarkibi

	muddati o‘tgan debitor qarzdorlik bo‘yicha korxonalar soni	muddati o‘tgan debitor qarzdorlik mln. so‘m	muddati o‘tgan kreditor qarzdorlik bo‘yicha korxonalar soni	muddati o‘tgan kreditor qarzdorlik mln. so‘m
Toshkent shahri	**86**	**3164469,7**	**41**	**6771536,3**
tumanlar:				
Bektemir	7	83058,2	2	11180,8
Mirzo Ulug‘bek	8	261484,0	4	177757,4
Mirobod	12	326292,4	3	38335,6
Olmazor	5	26780,8	5	59433,3
Sergeli	4	16859,8	2	19950,4
Uchtepa	5	7666,7	4	1327,8
Chilonzor	6	1666554,3	4	14601,9
Shayxontohur	7	544832,9	4	471847,1
Yunusobod	10	31037,6	4	2032,6
Yakkasaroy	11	175175,9	2	5957771,6
Yashnobod	11	24727,1	7	17297,8
Yangihayot	-	-	-	-

Toshkent shahrining yirik tijorat tashkilotlari bo‘yicha 2023-yil 1-iyun holatiga muddati o‘tgan debitor qarzdorlikning tumanlar kesimida asosiy qismi Chilonzor tumaniga – 1 666,6 mlrd. so‘m (jami muddati o‘tgan debitor qarzdorlikning 52,7 %), Shayxontohur tumaniga – 544,8 mlrd. so‘m (jami muddati o‘tgan debitor qarzdorlikning 17,2 %), Mirobod tumaniga– 326,3 mlrd. so‘m (jami muddati o‘tgan debitor qarzdorlikning 10,3 %) va Mirzo Ulug‘bek tumaniga – 261,5 mlrd. so‘m (jami muddati o‘tgan debitor qarzdorlikning 8,3 %) to‘g‘ri keldi.

Shuningdek 2023-yil 1-iyun holatiga muddati o‘tgan kreditor qarzdorlikning tumanlar kesimida tahlil qilganda, asosiy qismi Yakkasaroy tumaniga – 5 957,8 mlrd. so‘m (jami muddati o‘tgan kreditor qarzdorlikning 88,0 %), Shayxontohur tumaniga – 471,8 mlrd. so‘m (jami muddati o‘tgan kreditor qarzdorlikning 7,0 %) va Mirzo Ulug‘bek tumaniga – 177,8 mlrd. so‘m (jami muddati o‘tgan kreditor qarzdorlikning 2,6 %) to‘g‘ri keldi.

STATISTIK KO‘RSATKICHLARGA IZOHLAR

Daromad (foyda) solig‘i to‘lagunga qadar foyda (zarar) – korxona va tashkilotlarning barcha xo‘jalik operatsiyalarini buxgalteriya hisobida aks ettiradigan yakuniy moliyaviy natija. Mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishning yalpi foydasi (zarari), asosiy faoliyatning boshqa daromadlari, moliyaviy faoliyatning daromadlari va favqulodda foyda yig‘indisidan davr xarajatlari, moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlar va favqulodda xarajatlar chegirib tashlanadigan foydaning umumiy foydasini (zararini) ifodalaydi.

Debitorlik qarzlar – xaridorlar va buyurtmachilar, sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlarining qarzlari, xodimlarga, mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo‘naklar, budjet va davlat maqsadli jamg‘armalariga soliqlar, yig‘imlar va sug‘urta bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari, muassislarning ustav fondidagi ulushlari bo‘yicha qarzi, xodimlarning boshqa operatsiyalar bo‘yicha qarzlari va boshqa debitorlik qarzlarini o‘z ichiga oladi.

Kreditorlik qarzlar – yetkazib beruvchilar va pudratchilar, sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlarining qarzi, soliq va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha muddati kechiktirilgan majburiyatlar, olingan avanslar, budjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz, sug‘urta bo‘yicha qarz, davlat maqsadli jamg‘armalariga to‘lovlar bo‘yicha qarz, ta’sischilarga qarzlar, mehnatga haq to‘lash bo‘yicha qarzlar va boshqa kreditorlik qarzlarini o‘z ichiga oladi.

Mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) – tayyor mahsulot, tovar, bajarilgan ish va ko‘rsatilgan xizmatlarni sotishdan olingan daromadlar, shuningdek, sotilgan tovarlarning qaytishi, sotish va baholardan chegirmalar qo‘shimcha qiymat solig‘i hamda aksiz solig‘ini qo‘shgan holda.

Muddati o‘tgan qarzlar – qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda so‘ndirilmagan qarzning umumiy summasi.

Korxona va tashkilotlar yagona davlat registri ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yilning 1-iyul holatiga ko‘ra ro‘yxatga olingan yuridik shaxslar soni 130,0 mingtani tashkil qilib, shundan 94,3 mingtasi yoki 72,5 % faoliyat ko‘rsatmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ro‘yxatga olingan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi savdo (ro‘yxatga olinganlarning umumiy sonidan 31,4 %), sanoat (13,4 %), qurilish (8,1 %) hamda yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar (6,5 %) sohalariga to‘g‘ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ro‘yxatga olingan hamda faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar taqsimoti (*2023-yil 1-iyul holatiga ko‘ra*)

	Ro‘yxatga olinganlar		Faoliyat ko‘rsatayotganlar	
	birlik	jamiga nisbatan, foizda	birlik	jamiga nisbatan foizda
Jami	**130 026**	**100,0**	**94 322**	**100,0**
shu jumladan:				
Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklari	1166	0,9	639	0,7
Sanoat	17453	13,4	11452	12,1
Qurilish	10486	8,1	6911	7,3
Savdo	40811	31,4	30164	32,0
Tashish va saqlash	5201	4,0	3837	4,1
Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	8406	6,5	5209	5,5
Axborot va aloqa	6014	4,6	4513	4,8
Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	2397	1,8	2006	2,1
Boshqa turdagi xizmatlar ko‘rsatish	38092	29,3	29591	31,4

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi, foizda (*fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz*)



Toshkent shahrida ro‘yxatga olingan korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning eng ko‘p miqdori 32,0 % savdo sohasida, 12,1 % sanoat sohasida, 7,3 % qurilish sohasida, 5,5 % yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda, 4,8 % axborot va aloqa, 4,1 % tashish va saqlash, 2,1 % sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishda, 0,7 % qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklarida va 31,4 % boshqa faoliyat turlari hissalariga to‘g‘ri keladi.

2023-yil 1-iyul holatiga ko‘ra faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat korxona va tashkilotlarning soni 84,6 mingta bo‘lib, shundan mas’uliyati cheklangan jamiyatlar – 72,5 mingta, xususiy korxona – 8,3 mingta, oilaviy korxona – 2,8 mingta, unitar korxona – 0,3 mingta, aksiyadorlik jamiyatlar – 0,2 mingta va 0,2 mingta boshqa tijorat korxonalari tashkil etadi.

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat yuridik shaxslarning taqsimoti, *birlikda*



2023-yil yanvar–iyun oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning soni 8,5 mingtani tashkil etgan bo‘lib, shundan kichik biznes sub’ektlari 8,2 mingtani tashkil qiladi.

Jami yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning eng ko‘p qismi Mirzo Ulug‘bek (1130 ta), Chilonzor (964 ta), Yunusobod (803 ta), Olmazor (788 ta), Mirobod (770 ta), Yakkasaroy (765), Shayxontohur (697 ta), Uchtepa (539 ta) va Sergeli (522 ta) tumanlari hissalariga to‘g‘ri keldi. Aksincha, Yangihayot (367 ta) hamda Bektemir (206 ta) tumanlarida korxona va tashkilotlar tashkil etish ko‘rsatkichi past darajani aks ettirgan.

2023 -yil 1-iyul holatiga ro‘yxatdan o‘tgan korxona va tashkilotlar soni

(fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) birlikda



Korxona va tashkilotlar soni

(fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz)

(birlikda)

	2023- yil 1-iyul holatiga ko‘ra ro‘yxatga olinganlar	2023- yil yanvar–iyun oylarida	
		yangi tashkil topganlar	tugatilganlar
Toshkent shahar	**130 026**	**8 535**	**1 164**
tumanlar:			
Uchtepa	11021	539	99
Bektemir	3232	206	37
Yunusobod	16183	984	104
Mirzo-Ulug‘bek	15109	1130	131
Mirobod	10824	770	147
Shayxontohur	12414	697	117
Olmazor	12869	788	100
Sergeli	6837	522	88
Yakkasaroy	11195	765	85
Yashnabod	10873	803	99
Yangihayot	3174	367	28
Chilonzor	16295	964	129

2023-yil yanvar–iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning soni, birlikda
(fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz)

Kichik korxona va mikrofirmalar soni

2023-yil 1-iyul holatiga ko‘ra Toshkent shahrida faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub’ektlarning soni 82,9 mingtani tashkil etgan (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz).

Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi 10012 birlik Chilonzor, 9867 birlik Yunusobod, 9702 birlik Mirzo Ulug‘bek, 8083 birlik Olmazor, 7641 birlik Shayxontohur hamda 7347 birlik Yakkasaroy tumanlari hissalariga to‘g‘ri keladi. Faoliyat ko‘rsatayotganlarning kam qismi 7041 birlik Uchtepa 7143 birlik Yashnobod, 6884 birlik Mirobod, 4757 birlik Sergeli, 2300 birlik Bektemir hamda 2174 birlik Yangihayot tumanlari hissalariga to‘g‘ri keladi.

2023-yil 1-iyul holatiga ko‘ra faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning tumanlar kesimida ulushi *(foizda)*



Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan jami 82951 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 29748 birligi (35,9 %) – savdoda, 11242 birligi (13,6 %) – sanoatda, 6809 birligi (8,2 %) – qurilishda, 5190 birligi (6,3 %) – yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida, 4336 birligi (5,2 %) – axborot va aloqa sohasida, 3742 birligi (4,5 %) – tashish va saqlashda, 1710 birligi (2,1 %) – sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishda, 625 birligi (0,8 %) – qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklarida, shuningdek 19549 birligi (23,6 %) – boshqa faoliyat turlari hissalariga to‘g‘ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi, *foizda*
2023–yil 1-iyul holatiga



Shundan ko‘rinib turibdiki, faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi savdo va sanoat faoliyat turlariga to‘g‘ri keladi. Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha eng kam ulush esa sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishda hamda qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklari turlariga to‘g‘ri keladi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2023-yil 1-iyul holatiga ko‘ra xorijiy kapital ishtirokidagi ro‘yxatga olingan korxona soni 10 892 birlikni, faoliyat ko‘rsatayotgan korxona soni 8 150 birlikni tashkil etadi. Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonadan 2 596 tasi qo‘shma korxona, 5 554 tasi esa xorijiy korxona hisoblanadi.

.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning o‘sish dinamikasi, *birlikda*



Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni, *birlikda*
2023-yil 1-iyul holatiga



Shundan ko‘rinib turibdiki, faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonaning asosiy qismi savdo va sanoat faoliyat turiga to‘g‘ri keladi, eng kam ulush esa sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish hamda qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklari faoliyat turlariga to‘g‘ri kelmoqda.

Faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar tumanlar kesimida, birlikda

Tumanlar kesimida

Mirobod tumani	1 445	Shayxontohur tumani	561
Yakkasaroy tumani	1 215	Olmazor tumani	406
Mirzo Ulug‘bek tumani	1 159	Sergeli tumani	346
Yunusobod tumani	976	Uchtepa tumani	227
Chilonzor tumani	757	Bektemir tumani	189
Yashnobod tumani	727	Yangihayot tumani	142

Tumanlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy va qo‘shma korxonalar soni to‘g‘risida ma’lumot

2023 - yil 1- iyul holatiga ko‘ra, birlikda

xorijiy korxonalar		qo‘shma korxonalar
1 073	Mirobod	372
885	Yakkasaroy	330
803	Mirzo Ulug‘bek	356
662	Yunusobod	314
505	Chilonzor	252
476	Yashnobod	251
352	Shayxontohur	209
233	Sergeli	113
226	Olmazor	180
149	Uchtepa	78
106	Bektemir	83
84	Yangihayot	58

Xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil topgan korxonalarning davlatlar kesimidagi soni, *birlikda*

2023- yil yanvar–iyun oylarida

2023-yilning yanvar–iyun oylarining yakuni bo‘yicha xorijiy kapital ishtirokidagi 961 ta korxona yangi tashkil qilindi. Bunda, Rossiya federatsiyasi rezidentlarining kapitali ishtirokidagi korxona soni – 321 tani, Xitoy Xalq Respublikasi – 159 tani, Qozog‘iston Respublikasi – 75 tani, Turkiya Respublikasi – 79 tani hamda 327 tani boshqa davlatlar tashkil qildi. Shuningdek, 2023- yilda Afg‘oniston Islom Respublikasi, Hindiston Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari hamkorlik qilishga qiziqish bildirdilar.

Oilaviy korxonalar soni

2023-yil 1-iyul holatiga ko‘ra yuridik shaxs sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tgan oilaviy korxonalar soni 4203 birlikni tashkil etdi, ulardan 2880 birlik yoki 68,5 % faoliyat yuritmoqda.

Oilaviy korxonalar soni, *birlikda*

	Ro‘yxatdan o‘tgan	Faoliyat ko‘rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
01.07.2022	3876	3677	271
01.07.2023	4203	2880	218

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalarning soni ko‘rilganda oilaviy korxonalarning 26,9 % yoki 776 tasi sanoat, 31,5 % yoki 906 tasi savdo, 19,4 % yoki 559 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 1,2 % yoki 34 tasi qishloq o‘rmon va baliq xo‘jaliklari, 1,4 % yoki 40 tasi axborot va aloqa, 1,1 % yoki 32 tasi qurilish, 2,4 % yoki 68 tasi sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish, 1,0 % yoki 28 tasi tashish va saqlash hamda 15,2 % yoki 437 tasi boshqa faoliyat turlari hissalariga to‘g‘ri kelmoqda.

2023-yil 1-iyul holatiga iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalarning ulushi, *foizda*



2023-yil 1-iyul holatiga iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalarning sonini ko‘rilganda eng katta soni sanoat va savdoda, eng kichik soni esa qurilish, sog‘liqni saqlash hamda tashish va saqlash xizmatlari sohasiga to‘g‘ri keladi.

STATISTIK KO‘RSATKICHLARGA IZOHLAR

Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma’lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma’lumotlardan iborat bo‘lgan, avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta’minlaydi.

Ro‘yxatga olingan – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reyestrida mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar hisoblanadi (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko‘rsatayotgan – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to‘g‘risidagi ma’lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar hisoblanadi.

Yangi tashkil etilgan – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reyestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar hisoblanadi.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016– yil 24– avgustdagi “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 275– son qarorining 1– ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subektlariga tegishli bo‘lgan korxonalar va tashkilotlar.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo‘limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Toshkent shahri bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(*qishloq xo‘jaligi korxonalari hamda kichik tadbirkorliksiz, qayta hisoblangan, ming so‘m*)

	2022 -yil yanvar-iyun	2023- yil yanvar-iyun	O‘sish sur‘ati, % da
Toshkent shahri	**5 521,4**	**7 016,4**	**127,1**
tumanlar:			
Uchtepa	3953,1	3889,0	98,4
Bektemir	4526,5	5623,3	124,2
Yunusobod	6490,1	8498,5	131,0
Mirzo Ulug‘bek	5335,4	6640,0	124,.5
Mirobod	6661,6	8643,3	129,7
Shayxontohur	5599,4	7220,6	128,9
Olmazor	4463,9	5362,8	120,1
Sergeli	5443,4	6262,1	115,0
Yakkasaroy	5634,9	7783,7	138,1
Yashnobod	5254,7	6712,7	127,7
Yangihayot	3298,1	4634,1	140,5
Chilonzor	5122,2	6459,0	126,1

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(qishloq xo‘jaligi korxonalari hamda kichik tadbirkorliksiz, qayta hisoblangan, ming so‘m)

	2023- yil yanvar-iyun	Toshkent shahridagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan, % da
Toshkent shahri	**7016,4**	**100,0**
shu jumladan:		
Sanoat	6302,9	89,8
Qurilish	5650,0	80,5
Savdo	5575,1	79,5
Tashish va saqlash	7449,6	106,2
Axborot va aloqa	10613,8	151,3
Moliyaviy va sug‘urta faoliyati	15876,5	2,2 m.
Ta‘lim	4978,2	70,9
Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	3485,9	49,7
Boshqa faoliyat turlari	7595,8	108,3

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqining eng yuqori darajasi moliyaviy va sug‘urta faoliyatida – 15 876,5 ming so‘m (Toshkent shahridagi o‘rtacha oylik ish haqidan 226,2 %ga), axborot va aloqa – 10 613,8 ming so‘m (151,3 % ga), tashish va saqlash – 7 449,6 ming so‘m (106,2 %), boshqa faoliyat turlarida – 7 595,8 ming so‘m (108,3 % ga) tashkil etganini kuzatishimiz mumkin.

2023-yil yanvar-iyun oylarida



Ish haqi miqdori, ming so‘m

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqining eng past darajasi ta‘limda 4 978,2 ming so‘m, sog‘liqni saqlash va sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishda 3 485,9 ming so‘m kuzatildi.

STATISTIK KO‘RSATKICHLARGA IZOHLAR

Nominal hisoblangan ish haqi – ma‘lum bir davr (soat, oy, yil) mobaynida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot (bajarilgan ish yoki ko‘rsatilgan xizmat) evaziga ish beruvchilar tomonidan, amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda soliq va boshqa to‘lovlarni o‘z ichiga oluvchi yollanma xodimning mehnatiga haq to‘lash tarzida jismoniy shaxsga pul shaklida hisoblangan daromadlardan iborat.

O‘rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan xodimlar soni – homiladorlik va tug‘ish bo‘yicha ta‘tilda bo‘lgan, bevosita tug‘uruqxonaning o‘zidan yangi tug‘ilgan chaqaloqni farzandlikka olish munosabati bilan ta‘tilda bo‘lgan, hamda bolani uning qonun hujjatlariga muvofiq ma‘lum bir yoshga to‘lguniga qadar parvarish qilish bo‘yicha ta‘tilda bo‘lgan ayollar; ta‘lim muassasalarida o‘qiyotgan va ish haqi saqlanmagan holda qo‘shimcha mehnat ta‘tilida bo‘lganlar, shuningdek, ta‘lim muassasalariga kirish imtihonlarini topshirish uchun ish haqi saqlanmagan holda ta‘tilda bo‘lgan xodimlarlarni inobatga olmagan holda, mehnat daftarchalari mavjud bo‘lgan va ish haqi hisoblangan xodimlarning o‘rtacha sonini ifodalaydi.

Ish vaqti- korxona yoki muassasada muayyan ishni bajarish uchun qonuniy berilgan muddat ish kuni va ish haftasi bilan belgilanadi. Ish vaqti davomida ishlanmagan vaqt (nima sababdan sodir bo‘lgani dan qat‘iy nazar) bekor turish vaqti deyiladi.

Ish haqi- joriy davrda ish beruvchi tomonidan yollangan xodimga bajargan ishlari uchun berilgan pul yoki natura usulidagi to‘lovlar bo‘lib, ular hisoblangan summalar yig‘indisidan tashkil topadi va ikki qismga bo‘linadi: ish haqi va ijtimoiy sug‘urtaga ajratmalar.

Ish haqiga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillar- Bozor iqtisodiyoti sharoitida ish haqi

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2023-yilning 1-iyul holatiga Toshkent shahri doimiy aholisi soni 2 999,5 ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan 43,1 ming kishiga yoki 101,5 % ga o‘sdi.

Toshkent shahri tumanlari bo‘yicha doimiy aholi soni to‘g‘risida ma’lumot

(2023- yilning 1-iyul holatiga)

	Doimiy aholi soni, ming kishi			Doimiy aholi sonining o‘sish sur’ati, %		
	jami	shu jumladan:		jami	shu jumladan:	
		shahar	qishloq		shahar	qishloq
Toshkent shahri	**2 999,5**	**2 999,5**	**-**	**101,5**	**101,5**	**-**
tumanlar:						
Uchtepa	296,6	296,6	-	101,0	101,0	-
Bektemir	58,2	58,2	-	104,3	104,3	-
Yunusobod	371,8	371,8	-	101,3	101,3	-
Mirzo Ulug‘bek	327,0	327,0	-	101,2	101,2	-
Mirobod	151,0	151,0	-	101,0	101,0	-
Shayxontohur	363,0	363,0	-	100,7	100,7	-
Olmazor	399,9	399,9	-	101,2	101,2	-
Sergeli	164,9	164,9	-	101,6	101,6	-
Yakkasaroy	131,5	131,5	-	103,6	103,6	-
Yashnobod	294,8	294,8	-	101,8	101,8	-
Yangihayot	167,1	167,1		103,7	103,7	-
Chilonzor	273,7	273,7	-	100,6	100,6	-

Toshkent shahri tumanlari kesimida 2023-yil 1-iyul holatiga eng ko‘p aholi soni Olmazor tumanida 399,9 ming kishini (Toshkent shahri aholi sonidagi ulushi (13,3%), kishini Yunusobod tumanida 371,8 ming kishini (12,3 %) va Shayxontohur tumanida 363,0 ming kishini (12,1 %) ni tashkil etdi.

Tumanlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi
(2023-yil 1-iyul holatiga Toshkent shahri jami aholisiga nisbatan, foizda)



Toshkent shahrida aholining tabiiy harakati ko‘rsatkichlari va koeffitsiyentlari
(yanvar-iyun)

Ko‘rsatkichlar	Kishi		1000 aholiga nisbatan	
	2022-yil	2023-yil	2022-yil	2023-yil
Tug‘ilganlar	34 230	38 790	23,9	26,3
O‘lganlar	7 960	6 734	5,6	4,6
shu jumladan:1 yoshgacha o‘lgan bolalar	-	-	-	-
Nikoh *(birlik)*	9 278	8 804	6,5	6,0
Ajrim *(birlik)*	2 976	2 989	2,1	2,0

Tug‘ilish. 2023-yil yanvar-iyun oylarida 38 790 ta bola tug‘ilganligi qayd etilgan bo‘lib, 2022-yilning mos davriga (34 230 ta bola) nisbatan 4 560 ta bolaga ko‘paydi, tug‘ilish koyeffitsiyenti 26,3 promilleni tashkil etdi.

Aholining tug‘ilish koeffitsiyenti

(yanvar-iyun oylarida, 1000 aholiga, promille)



Tug‘ilish koeffitsiyentining sezilarli darajada o‘sishi Yakkasaroy (23,5 promilledan 71,8 promillega), Bektemir (28,8 promilledan 66,7 promillega), Yangihayot (23,4 promilledan 34,1 promillega), Yunusobod (23,5 promilledan 27,8 promillega) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha tug‘ilish koeffitsiyentining kamayishi Sergeli (30,8 promilledan 12,9 promillega), Yashnobod (21,2 promilledan 15,8 promillega) tumanlarda kuzatildi.

O‘lim. 2023-yil yanvar-iyun oylarida o‘lganlar soni 6,7 ming kishini tashkil etib, 2022- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan (1,2 ming kishi) ga kamaydi, mos ravishda o‘lim koeffitsiyenti 4,6 promilleni tashkil etdi (2022-yil yanvar-iyun 5,6 promille bo‘lgan).

O‘lim koeffitsiyenti yuqori darajasi 2022-yilga nisbatan Chilonzor (5,9 promilledan 8,6 promillega) tumanida kuzatildi.

O‘lim koeffitsiyentining past darajasi Yakkasaroy (2,4 promille), Yangihayot (2,6 promille) va Shayxontohur (3,5 promille) tumanlarida qayd etildi.

Ro‘yxatga olingan jami o‘lganlarning 57,2 % qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 15,0 % o‘simtalardan, 5,2 % ovqat hazm qilish a’zolari kasalliklaridan, 6,4 % nafas olish a’zolari kasalliklaridan, 4,3 % baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 3,2 % yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 8,7 % boshqa kasalliklardan vafot etgan.

2023- yilning yanvar-iyun oylarida o‘lganlarning asosiy o‘lim sababi bo‘yicha taqsimlanishi *(jami vafot etganlarga nisbatan foizda)*



Nikoh va ajrimlar. 2023-yilning yanvar-iyun oylarida FHDYO organlari tomonidan 8,8 mingta nikoh va 3,0 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo‘lib, 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 6,0 promilleni (2022-yil yanvar-iyun oylarida 6,5 promille bo‘lgan) va nikohdan ajralish koeffitsiyenti 2,0 promilleni (2022- yil yanvar-iyun oylarida 2,1 promille bo‘lgan) tashkil etdi.

Nikoh tuzish va nikohdan ajralishlar koyeffitsiyentlari

(2023-yil yanvar-iyun, 1000 aholiga, promille)



Nikoh va ajrimlar soni

(yanvar-iyun)

(birlikda)

	Nikohlar		Ajrimlar	
	2022- yil	2023 -yil	2022 -yil	2023- yil
Toshkent shahar	**9278**	**8804**	**2976**	**2989**
tumanlar:				
Uchtepa	1011	895	289	299
Bektemir	201	194	69	72
Yunusobod	1289	1294	392	405
Mirzo Ulug‘bek	821	868	320	346
Mirobod	406	416	130	162
Shayxontohur	1026	944	319	284
Olmazor	1163	997	372	336
Sergeli	537	646	257	235
Yakkasaroy	627	523	147	118
Yashnobod	856	749	313	339
Yangihayot	404	362	71	97
Chilonzor	937	916	297	296

Tumanlar kesimida 2023- yilning yanvar-iyun oylarida nikohlar soni bo‘yicha taqsimlanishi, *birlikda*



Nikoh. Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, tumanlar bo‘yicha eng yuqori nikoh tuzish darajasi Yunusobod tumanida 1294 ta, Olmazor tumanida 997 ta, Shayxontohur tumanida 944 ta, Uchtepa tumaniga 895 ta to‘g‘ri keladi.

Tumanlar bo‘yicha eng kam nikoh tuzish darajasi Mirobod 416 ta, Yangihayot 362 ta, Bektemir 194 ta va tumanlariga to‘g‘ri keladi.

Tumanlar kesimida 2023- yilning yanvar-iyun oylarida nikohdan ajralishlar soni bo‘yicha taqsimlanishi, *birlikda*



Ajrim. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, tumanlar bo'yicha eng yuqori nikohdan ajralishlar darajasi Yunusobod 405 ta, Mirzo Ulug'bek 346 ta, Olmazor 336 ta, va Yashnobod 339 ta tumanlariga to'g'ri keladi.

Tumanlar bo'yicha eng kam nikohdan ajralishlar darajasi Bektemir 72 ta, Yangihayot 97 ta va Yakkasaroy 118 ta tumanlariga to'g'ri keladi.

Nikohdan ajrashganlarning farzandlar soni bo'yicha taqsimlanishi
2023- yil yanvar-iyun oylarida



2023- yil yanvar-iyun oylarida Toshkent shahrida jami nikohdan ajrashganlarning 51,2 foizi farzandsiz, 25,2 foizi bitta farzand bilan va 23,6 foizi ikki va undan ortiq farzand bilan ajrashganlar hissasiga to'g'ri kelgan.

Migratsiya. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilning yanvar-iyun oylarida Toshkent shahri bo'yicha ko'chib kelganlar soni 46,2 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 35,1 ming kishini tashkil etdi.

Shunga muvofiq, migratsiya saldosi plyus 11,1 ming kishini tashkil etib, 2022-yilning mos davrida 20,8 ming kishini tashkil etgan.

Migratsiya saldosining yuqori darajasi Yashnobod (plyus 3,8) tumanida qayd etildi.

Aholi migratsiyasi
(yanvar-iyun)

(kishi)

	Kelish		Ketish		Migratsiya saldosi	
	2022-y.	2023-y.	2022-y.	2023- y.	2022-y.	2023- y.
Toshkent shahri	**51426**	**46222**	**30653**	**35130**	**20773**	**11092**
tumanlar:						
Uchtepa	3929	3495	3569	3619	360	-124
Bektemir	2676	1412	527	753	2149	659
Yunusobod	4047	3975	3285	3471	762	504
Mirzo Ulug‘bek	6182	4737	2897	3600	3285	1137
Mirobod	2686	2577	1942	2287	744	290
Shayxontohur	2809	2598	3325	3250	-516	-652
Olmazor	3519	3455	3084	3125	435	330
Sergeli	8233	4885	2417	2975	5816	1910
Yakkasaroy	1941	2061	1623	1949	318	112
Yashnobod	5454	7213	2762	3371	2692	3842
Yangihayot	5704	6051	1488	2606	4216	3445
Chilonzor	4246	3763	3734	4124	512	-361

Aholining tabiiy va mexanik harakatlari to‘g‘risida ma’lumot
(2023- yil yanvar-iyun, 1000 aholiga, promille)



STATISTIK KO‘RSATKICHLARGA IZOHLAR

Doimiy aholi – ro‘yxatdan o‘tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo‘lib, bunga ushbu hududda doimiy ro‘yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

Tug‘ilish – tug‘ilish jarayonlarining sodir bo‘lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko‘rsatkich.

1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti – hisobot yilida jami tug‘ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000 ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan o‘lim koeffitsiyenti – hisobot yilida jami o‘lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000 ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi**.**

O‘lim sabablari – o‘limga yoki uning sodir bo‘lishiga ta’sir etgan kasalikklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o‘lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo‘lgan baxtsiz hodisa va zo‘ravonlik holatlari.

Nikoh – erkak va ayol o‘rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o‘zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o‘rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro‘yxatdan o‘tkazish natijasida o‘rnatiladi.

1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000 ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish) – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to‘liq yuridik to‘xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro‘yxatdan o‘tkazilganidan so‘ng bekor qilingan hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.